O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

DILNOZA YULDASHEVA

AKADEMIK YOZUV

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

Samarqand-2022

D.Yuldasheva. Akademik yozuv. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamISI nashri. 2022, 70-bet.

Mazkur o‘quv uslubiy qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarining bakalavr bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, har bir dars matnlar hamda mavzu yuzasidan nazariy ma’lumotlar, topshiriqlar, testlardan iborat.

Mas’ul muharrir:

Adilova Soliya Adilovna – SamISI, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n.

Taqrizchilar:

U. Rashidova – SamDU “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri, PhD

M.Vafoyeva – SamDU “Boshlang‘ich va texnologik ta’lim” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Ushbu o‘quv uslubiy qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2022-yil 25-martdagi 8-son majlis bayonida nashrga tavsiya etilgan.

1-MAVZU: FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

R e j a :

1. *Nutq madaniyati tushunchasi.*
2. *Nutq madaniyatini shakllantiruvchi omillar.*
3. *Nutqiy savodxonlik o‘lchovlari.*
4. *O‘zbek nutqidagi kamchiliklar va ularni tuzatish yo‘llari.*

Tayanch so‘z va iboralar: *Nutq madaniyati, to‘g‘ri nutq, yuqori nutq, so‘zlashuv madaniyati, til madaniyati, savodxonlik, nutqiy savodxonlik.*

Nutq madaniyati nima, uni yetarli darajada egallash uchun qanday vazifalarni amalga oshirish lozim va bunda adabiy til me’yorlarining o‘rni qanday bo‘ladi? Nutq madaniyati qanday ifodalaniladi?

Bu savolga javoblarni, avvalo taniqli tilshunos olimlarning asarlaridan topamiz.

S.I.Ojegov shunday degan edi : «Yuqori nutq madaniyati nima? Yuqori nutq madaniyati - bu o‘z fikrlarini til vositalari bilan to‘g‘ri, aniq va ta’sirchan qilib bera olishdir. To‘g‘ri nutq deb esa hozirgi adabiy til me’yorlarga rioya qilib tuzilgan nutqqa aytiladi. Ammo yuqori nutq madaniyati faqatgina me’yorga rioya qilishidan iborat emas. U yana fikrni ifodalashning aniq vositasini topishdangina iborat bo‘lib qolmasdan, birmuncha ta’sirchan va maqsadga muvofiq vositalarni topish uquvini ham o‘z ichiga oladi».

L.I. Skvorsov: «Nutq madaniyati» tushunchasi bir tomondan nutqning adabiy til me’yorlariga mos kelish darajasini bildirsa, ikkinchi tomondan tilshunoslik fanining madaniyat quroli bo‘lgan adabiy tilni mukammallashtirish maqsadida me’yorlashtirish muammolari bilan shug‘ullanuvchi sohadir».

Ma’lum bo‘ladiki, nutq madaniyati, agar masalaga til nuqtai nazardan qaraladigan bo‘lsa, bu dastlab nutqning grammatik to‘g‘riligi demakdir. Ikkinchidan esa, u uslubiy jihatdan ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak, ya’ni yaxshi nutqda noaniqlikka, ikki ma’nolilikka, uzundan uzoqlikka yo‘l qo‘yilmasligi, qisqalik, aniqlik va soddalik uning o‘lchovi bo‘lishi lozim. Keng ma’noda esa nutq madaniyati nutqiy ta’sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o‘tkirlik va obrazlilikni ifoda etadi.

Keltirilgan ikki omil asosida nutq madaniyati hodisasi ham, bizningcha, ikki xil talqin qilinishi va nomlanishi lozim bo‘ladi.

1.Til madaniyati. 2. Nutq madaniyati yoki so‘zlashuv madaniyati.

Tilshunoslikda nutq madaniyati tushunchasini til madaniyati va so‘zlash madaniyati tushunchasiga ajratish izchillikka ega emas. Umuman, bu ikki tushuncha, asosan, birga yoki qorishtirilgan holda nutq madaniyati yoki til madaniyati termini bilan yuritilmoqda. Demak, bu holda til madaniyati termini nutq madaniyati terminiga

ekvivalent bo‘lib kelmoqda. Shu sababli ham, biz nutq madaniyati nomi bilan umumiy tarzda yuritilayotgan tushuncha (hodisa)dagi ikki holatni til madaniyati va nutq, ya’ni so‘zlash madaniyatini farqlash tarafdorimiz. Nutq madaniyati tushunchasi va termini keltirilgan ikki hodisa uchun umumiy tasavvur va umumiy nom tarzida tushunilishi mumkin. Xo‘sh, til madaniyati tushunchasi nima ?

Til madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til sistemasining o‘zini, masalan, o‘zbek adabiy tilining vosita va imkoniyatlarini, «madaniylashtirishni» ko‘zda tutadi. Demak, til madaniyati termini bilan ataluvchi tushuncha til sistemasining madaniylik darajasini, ya’ni uning qanchalik ishlanganligi, normalanganligini ko‘rsatadi»

Ko‘rinadiki, garchi «til madaniyati» va «nutq madaniyati» tushunchalari tilga oid atama sifatida bir-birlaridan farqlansa ham, aslida ularning birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan tushunchalardir. «Nutq madaniyati» aniq ma’noda til birliklarini nutq jarayonida qo‘llashning me’yori, maqsadga muvofiqligini anglatsa ham, umumiy ma’noda ma’lum millatning umumtil doirasida qaraladi. To‘g‘ri, nutq til va tildan tashqaridagi (lingvistik va ekstralingvistik) omillarni o‘z ichiga oladigan murakkab jarayon bo‘lib, u mantiq, ruhshunoslik, pedagogika, etika, estetika masalalari bilan ham bog‘liq. Ammo nutq uchun tilning birinchi darajada turishini hyech kim inkor eta olmaydi.

Ma’lum bo‘ladiki, til birliklarini me’yorlashtirish, hamma uchun umumiy va tushunarli bo‘lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanalsa ham, u nutq madaniyati sohasining xizmatlarini inkor etmaydi. Binobarin, me’yor muammolari hamisha ushbu sohaning tadqiqot obyekti bo‘lib qolaveradi. Nutq madaniyati tilda ma’lum me’yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo‘llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me’yorga amal qilishni ma’lum ma’noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, kamchiliklarni tugatishning eng ma’qul yo‘llari ko‘rsatib turiladi. «Nutq madaniyati keng miqyosdagi til tarbiyasini va ommaviy stilistik savodlilikni, boshqacha aytganda, so‘zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tadbiq etishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi» .

Amaliy mashg‘ulotlar uchun vazifalar :

1. Ustoz va shogird o‘rtasidagi suhbat namunasini tuzing va undagi shogirdning nutqi madaniyatini shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalarni ajratib ko‘rsating.

2. Boshliq bilan xodim o‘rtasidagi suhbat namunasini tuzing va undagi shogirdning nutqi madaniyatini shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalarni ajratib ko‘rsating.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar :

1. «Nutq madaniyati» deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq madaniyati qoidalarini o‘rganish nima uchun kerak?
3. Nutq madaniyatiga rioya qilish nimalarni talab etadi?
4. Savodxonlik nimalarga asoslanishini tushuntiring.

2-Mavzu: MULOQOT VA KOMMUNIKATSIYA JARAYONI

Reja:

1. Muloqot jarayoni.
2. Texnologik taraqqiyotning o‘rni.
3. Telekonferensiya va videokonferensiya.

Tayanch so‘z va iboralar: *Muloqot, muloqot jarayoni, kommunikatsiya, texnologik taraqqiyot, telekonferensiya, videokonferensiya, qisqa xabarlar xizmati.*

Muloqot jarayoni

Muloqot - kishilar o‘rtasidagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir.

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e’tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot jarayonida insonlar tabiatni o‘zlashtirish va o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o‘rgatishga oid psixologik mashqlar, samarali muloqotning psixologik vositalarini o‘rganish ishbilarmonlik faoliyatida asosiy o‘rinni egallamoqda. Muloqot jarayoni muloqotning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganishga yordam beradi.

Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat koʻrsatuvchilar oʻrtasidagi axborot ayirboshlashni oʻz ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning oʻzaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat soʻzlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat.

Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa, imo-ishora bilan muloqotda boʻlamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda boʻlamiz Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni oʻrnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir.

*«***Kommunikatsiya»** soʻzi lotincha "communicare" soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, xabar bermoq, qatnashmoq, boʻlishmoq, umumlashtirmoq degan maʼnolarni anglatadi.

Faktlar, gʻoyalar, fikrlar, hissiyot va aloqalarning almashinuv jarayonidir. Kommunikatsiya yakka shaxslar va tashkilotlarning mohiyat va tushunchalarini bir-birlari bilan boʻlishish vositasidir. Insoniyatning toʻsiqlar va chegaralar osha aloqa qilish qobiliyati insoniyat rivojiga hissa qoʻshgan. Dunyo boʻylab tez va samarali aloqa qilish qobiliyati dunyoni toraytirdi va «globalizatsiya»ni haqiqatga aylantirdi.

Kommunikatsiya muayyan mamlakat yo madaniyat yoki bir tilda soʻzlashuvchilar guruhiga mansub odamlar bilan oʻzaro faoliyatlari va aloqa qilishlarida muhim oʻrin tutadi. Kommunikativ aloqa inson hayotiga maʼno qoʻshadi. U munosabat yaratishga va muhabbatni shakllantirishga yordam beradi, oʻzaro tushunishni ragʻbatlantiradi. U bizning butun jahon toʻgʻrisidagi bilimimizni boyitib, turmushimizni munosib qiladi.

Muloqotga ikki va undan ortiq kishilarning oʻzaro tushunish va xohlangan harakatining amalga oshirilishi deb taʼrif berilishi mumkin. Bu soʻzlar va belgilar orqali maʼlumot almashinuvidir. Bu faktlar, gʻoyalar va nuqtai nazar almashinuvi umumiy qiziqishlar maqsad va harakatlarni amalga oshiradi. Amerika Menejment Assotsiatsiyasi «kommunikatsiya maʼno almashinuvining natijasi boʻluvchi har qanday xatti-harakatdir», deb taʼrif beradi.

Texnologik taraqqiyotning oʻrni

Hozirgi muloqot va maʼlumot asrida nutqiy jarayonga keng miqyosda kirishish boylik hisoblanadi. Bu manbalarga yechimlardan biri maʼlumotning qoʻllanishida qaytarish uslublarini qoʻllashga asoslangan, yangi kommunikatsion texnologiyalarning paydo boʻlishiga katta hissa qoʻshdi.

Yangi kommunikatsion texnologiyaning qoʻllanilishi keng koʻlamdagi korporativ biznes faoliyatlarning asosiy muammolaridan baʼzilarini, xususan, aniqlik,

narx, tezlik, sifat, miqdor nuqtai nazaridan hal etishni boshlaydi. Shunday qilib, kommunikatsiya keng geografik hudud, mamlakatning ichki hamda tashqi hududlarida, muqobil metodlarning qidirilishi zamonaviy murakkab biznes tashkilotlarida zaruriy bo‘lib qoldi. Radio, televideniye, kompyuter, audio va video kassetalari, video disk, telefonlar va ko‘pgina mexanik uskunalar kabi an’anaviy media vostalari ko‘plab tashkilotlarda muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda. Ular rejalashtirish, nazorat, yo‘naltirish, motivatsiya va hokazo boshqaruv funksiyalarida ham foydalidir.

Biznes dunyosi yangi texnologiyalarni kommunikatsiya tufayli jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat sifatida xizmat qilishi uchun qabul qilishi shart yoki raqobatbardosh rivojlanish yo ‘lida omon qolish qiyin bo‘ladi.

Dunyoda SMS xabarlarini yuborish ma’lumotlaridan eng ko‘p foydalanuvchi 2.4 milliard faol qo‘llanuvchilar telefonlarida xabarlarni yuboruvchi va qabul qiluvchi barcha mobil telefon abonentlarining 74%ini tashkil qiladi. Matn so'z yoki raqamlar yo bo‘lmasa harfli-raqamli birikmasi shaklida bo ‘lishi mumkin.

Faol mobil telefon qurilmasi orqali, ayni paytda rivojlantirilayotgan ovozli va ma’lumot qo‘ng‘irog‘idan qat’i nazar, har qaysi payt qisqa xabarlarni qabul qilishi va yuborishi mumkin.

Qisqa xabarlar xizmati (SMS) ning afzalliklari:

1.Xabar har qaysi payt jo‘natilishi mumkin.
2.Bu shoshilinch paytda foydalidir.
3.Bu xarajat bilan birgalikda vaqtni ham tejaydi.

Qisqa xabarlar xizmati (SMS) ning kamchiliklari:

1.Tarmoq aloqasi tufayli xabarning yetkazilishidagi kechikish.
2.Qabul qiluvchi tomonidan ba’zan juda qisqa 1-2 so‘zlar yoki gaplar noto‘g‘ri s harhlanishi mumkin.

Telekonferensiya va videokonferensiya

Har bir ofisda mikrofonlar bilan qatnashchilar soni oshirilishi mumkin. Ikki tomonlama qo‘ng‘iroqlardan foydalanganda, barcha qatnashuvchilar boshqa
(Vikram Bisen Priya. Business communication. New Delhi.2009, 43-44 betlar.)
barcha qatnashuvchilar bilan gaplashishlari mumkin. Bir tomonlama muloqot qo‘ng‘iroqlarida, og'zaki xabarlar (masalan, kompaniya prezidenti nutqi) turli joyla rga bir vaqtning o'zida yetkazilishi mumkin.

Telekonferensiyaning afzalliklari:

1.Foydalanish uchun qulay.

2.Oson erishib bo‘ladigan.
3.Dunyodagi har qanday telefon liniyasidan qatnashsa bo‘ladi.
4.Konferens qo‘ng‘iroqlarini tuzish uchun faqatgina bir necha daqiqa ketadi.
5.Harajatlar, energiya va vaqt tejaladi.

Telekonferensiyaning kamchiliklari:

l.Telekonferensiyaning asosiy cheklovi odamlar o‘rtasidagi yuzma-yuz faoliyatning o‘rnini bosa olmaydi.
2.Odamlar yuzma-yuz faoliyatni afzal ko‘rgan holda telekonferensiya haqiqiy maqsadga xizmat qilmaydi.

Videokonferensiya. U to‘liq interaktiv va deyarli yuzma-yuz yig‘ilishlarga o‘xshash bo'ladi. Ishlatilgan texnologiyaning darajasiga qarab interaktiv tarzda ikki joyni bog‘lashi mumkin yoki videoni uzatish saytlari ko ‘pchilik saytlarga ko‘rinishi (imiji) uzatilishi mumkin.

Bu standart telefon liniyasi orqali muloqot qilinishi mumkin. Murakkabroq tizim va jihozlar bilan ikki joydagi insonlarning barchalari bir-birlarini xuddi haqiqiy yig‘ilishdagidek ko‘rishlari ehtimolini yaratadi. Videokonferensiya bir vaqtning o'zida turli joylardagi insonlarni ko‘rish va eshitish imkonini yaratadi.

Videokonferensiyaning afzalliklari:

1.Bu yuzma-yuz muloqot uchun o‘rnini bosuvchi bo‘lib xizmat kiladi.
2.Muloqot real vaqtda sodir bo‘ladi.
3.U masofa to‘siqlarini bosib o‘tadi.
4.Ijrochilarning sayohat xarajatlarini tejashni keltirib chiqaradi.
5.Yig‘ilishlarni o'z vaqtida o‘tkazishda tejashni keltirib chiqaradi.
6.Turli joylarda o‘tirgan odamlarning bilimini jadal o‘sishini yengillashtiradi.

Videokonferensiya kamchiliklari:

l.Siz so'zlashmoqchi bo‘lgan insonda kompyuter bilan birgalikda konferensiya uchun talab etilgan uskunalar va dastur bo‘lishi kerak.
2.Uyali telefonga o‘xshab, kompyuterni olib yursa bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, konferensiyangizning olib yurilishiga ta’sir qiladi.
3.Videokonferensiyaning maxfiyligi har doim ham kafolatlanmaydi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1.Muloqot va kommunikatsiya jarayonini izohlab bering.
2.Telekonferensiyaning afzalliklari hamda kamchiliklarini tushuntirib bering.
3. Videokonferensiyaning afzalliklari hamda kamchiliklarini tushuntirib bering.

3-Mavzu: MULOQOT TEXNOLOGIYASI VA TEXNIKASI

Reja:

1.Muloqot texnikasi haqida ma'lumot.

2.Muloqot texnikasining tarkibiy qismlari.

3. Muloqot texnikasini shakllantirishda zamonaviy pedtexnologiyalarning o'rni.

Tayanch so'z va iboralar: *Muloqot, muloqot texnikasi, kamchiliklar, tarkibiy qismlar, muloqot madaniyati, mimik pantomima, hissiy holat, pedagogik munosabat.*

Muloqot texnikasi haqida ma'lumot

Muloqot texnikasi tug'ma iste'dod yoki nasldan naslga o'tuvchi xususiyat emas. Balki izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir. Ushbu faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham muloqot mahorati hamma uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir kishining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Muloqot texnikasini san'at va mahorat deb tushunish to'g'riroq bo'ladi.

Chunki nutqiy san'at - bu qandaydir qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, balki fahm-farosat bilan amalga oshiriladigan xatti-harakatdir.

Muloqot texnikasining zaruriy sharti - bu o'qituvchining o'z e'tibori va o'quvchilarning e'tiborlarini boshqara olish demakdir. U 2 omilga bog'liq bo'ladi:

Mehnat - bu behad izlanish va o'z ustida ishlash, qilgan ishlaridan xursand bo'lish, boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilish.

San'at - bu qandaydir qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan, aql farosat bilan amalga oshiriladigan xatti-harakat.

Muloqot texnikasida uchraydigan kamchiliklar:

1. Nuqsonli ovoz
2. Tovushni noaniq aytish
3. Nafas olishdagi tartibsizliklar
4. Nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik

Muloqot texnikasining tarkibiy qismlari:

1.Muloqot madaniyati - savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so 'zda aniq ifodalash.

2.Mimik pantomima - aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki iliq tabassum.

3.Hissiy holat - jiddiylik darajasi, xayrxohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy holatini tashkil etish.

Muloqot texnikasiga qo‘yiladigan talablar:

1. *Ovozning sifatiga e’tibor berish;*
2. *Muloqot jarayonida to‘g‘ri nafas olish;*
3. *Tovush va so'zlarni aniq talaffuz qilish;*
4. *To‘liq va aniq diksiya;*
5. *So‘z va gaplarning «chaynalmasligi»;*
6. *Fonetikaga oid bilimlardan xabardor;*
7. *Nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradiga mashqlardan muttasil foydalanib borish.*

Muloqotning ta’sirchanligini ta’minlash nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarni ham o'z ichiga oladi. Bamisoli ummon bo‘lgan tilimizdan bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, ya’ni tilimizda har qanday voqea-hodisalarni ifodalash uchun so‘z va iboralar topiladi, lekin muloqot vaziyati uchun eng uyg‘un ifodani topa bilish o‘qituvchining bilimi, ma’rifatu madaniyati, mahoratu malakasiga bog‘liq.

Muloqotdagi ohangning tezligi, yuqori-pastligi ham ta’sirchanlikni oshiruvchi omillardir. Bunday nutqlar, odatda, muhim qarorlar, axborotlar, farmoyishlar o‘qilganda ishlatiladi.

Mashhur qadimgi yunon notig‘i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo‘lganligidan chiroyli va ta’sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S.Inomxo‘jayev ta’kidlaganidek, keyinroq Demosfen muloqot texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto‘la qazib, shu yerto‘lada ovozini rivojlantirish, diksiya, deklamatsiya bo‘yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, “r” tovushini aytolmaslik, ba’zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og‘ziga mayda toshlarni solib, she’rlar, turli matnlarni o‘qish bilan shug‘ullanadi. Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she’rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir yelkasini hadeb ko‘taraverish odatidan qutulish uchun yerto‘lasining shiftiga uchi o‘tkir xanjarni osib qo‘yib, yelkasini xanjarning ayni uchiga to‘g‘rilab turib, mashqlarini davom ettiradi. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notiqlikning eng cho‘qqisini zabt etgan.

Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki, nafas olish zo‘riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me’yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo‘lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo‘ladi. Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to‘g‘ri tasavvur etmoq kerak.

Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va albatta, mazmuniy-estetik qurilishi o‘rtasidagi mutanosiblikni to‘g‘ri belgilamaslik oqibatida nafasning yetmay qolishi, shunga ko‘ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo‘lgan nutq parchasining bo‘linib ketishi, mantiqiy mazmunni buzadigan noo‘rin pauzaning paydo bo‘lishi kabi nuqsonlar o‘rtaga chiqadi. Masalan, qadimiy va boy tilimizning sofligini saqlash har birimizning burchimizdir jumlasi aytilarkan, masalan, har so'zidan keyin nafas tugab qolsa, ilojsiz, nafas olish uchun to‘xtalish majburiyati paydo bo‘ladi, bu esa jumlaning noto‘g‘ri bo‘linishiga olib keladi. Yoki ba’zan noto‘g‘ri taqsimlangan nafas jumlaning oxiriga borib yetmay qolsa, jumladagi so‘nggi so'z “yamlanib” talaffuz qilinadi, so‘zlovchi xuddi bo‘g‘ilib qolganday, juda qiynalganday tuyuladi, bu tinglovchi uchun ham sezilarli darajada qiyinchilik tug‘diradi. Yana bir misol. Odam o‘ta hayajonlanganida, qattiq qo‘rqqanida yoki og‘ir musibat ichida bo‘lganida, umuman, turli hissiy holatlarga tushganida so'zlarkan, nafas olish va nafas chiqarish fazalarini nazorat qila olmay qoladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to‘g‘ri taqsimlanmaydi, ko‘pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yetmay qoladi.

Muloqot texnikasini egallashda umumiy tarzda bo‘lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ayrim kishilar ko‘pincha muloqot jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Yana ba’zilar borki, ular muloqot jarayonida deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ularning o'zlari qiynaladilar, sezilarli samaraga erishilmaydi, faqat bunday ovoz bo‘g‘iq, tussiz eshitiladi.

Muloqot texnikasi bilan bog‘liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to‘g‘ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko‘ra mo’tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Muloqotning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasiga uyg‘un bo‘lishi maqsadga muvofiq. Tinglovchining ruhiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni qanday qabul qilayotganligidan kelib chikqan holda nutq tempini tanlasa, uni o‘rni bilan o'zgartirib tursa, ham pedagogiq ham psixologik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Muloqot jarayonida diksiya masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Masalan, ba’zan “z” tovushini jarangsiz “s” tovushiga moyil tarzda talaffuz qilish uchraydi: siz — sis, eshitdingiz — eshit-dingiz kabi. Bu singari nuqsonlar nutq tovushlarining hosil bo‘lish o‘rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigai nutq a’zolari)ning yyetarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo‘ladi. Noto‘g‘ri yoki noaniq talaffuz qilinadigan tovushning hosil bo‘lishida ishtirok etadigan nutq a’zolarining faolligini oshirish yo‘li bilan kishi nutqidagi ana shunday diktsion xatolarni tuzatish mumkin. Buning uchun xilma-xil mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar, maqol va matallar, turli mazmundagi matnlarni muntazam ovoz chiqarib takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko‘rinishidir. Umuman, muloqot texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg‘urish, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo‘lsa-da, xabardor bo‘lish, kerak bo‘lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni

bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki muloqot texnikasisiz so'zlovchining og‘zaki nutq madaniyatini aslo shakllangan deb bo‘lmaydi.

Muloqot texnikasini shakllantirishda zamonaviy pedtexnologiyalarning o‘rni

Mustaqil yurtimizda ma’naviy islohotlar jadal sur’atlar bilan olib borilayotgan bir paytda muloqot texnikasiga bo‘lgan e’tibor ham ortmoqda. Har bir shaxs, har bir fuqaro, qolaversa, har bir pedagog his- tuyg‘ularini ifodalashda, boshqalar bilan muloqotda, fikr almashuvda, o‘z faoliyatini olib borishda nutqning ahamiyati katta ekanligini bilmog‘i zarur. Nutqni aniq, to‘g‘ri, chiroyli, ixcham va sof tuzish uchun esa tilni, uning imkoniyatlarini yaxshi bilish talab etiladi. Hamma ham birday chiroyli so‘zlash qobiliyatiga ega emas, hammada ham notiqlik san’ati, nutqiy salohiyat bir xilda shakllangan deb bo‘lmaydi. Shunday ekan, o‘sib kelayotgan yosh avlodga vatanparvarlik, insonparvaplik va yuksak ma’naviyatni muloqot texnikasi orqali singdirish lozim. Muloqot jarayonidagi asosiy vositalardan biri bu ovoz texnikasidir. Ovoz nafas olish bilan uzviy bog‘liq, nafas olmasdan tovush chiqarib bo‘lmaydi, so'zlash uchun esa avval o‘pka havo bilan to‘ldiriladi. To‘g‘ri nafas olish tovush va nutqning jaranglab chiqishi uchun juda zarur. Ammo ko‘pchilik o‘z nafas olishini boshqara olmaydilar. Natijada havo yetmay urg‘u noto‘g‘ri ishlatilishi, mavzuning ma’nosi o'zgarib ketishi mumkin. Normal ovozga ega bo‘lmagan, xirildoq, bo‘g‘iq ovozli suhbatdoshning muloqoti esa barchaning g‘ashiga tegadi. Ovozdagi bunday nuqsonlarni ko‘proq mashq qilish orqali yo‘qotish mumkin. Muloqot texnikasida suhbatdoshlar o'z ovozlarini ehtiyot qilishlari uchun ayrim tartiblarga rioya etishlari zarur. Ovoz kuchli, past-baland, ingichka-yo‘g‘on, uzun- qisqa, yoqimli-yoqimsiz kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ovozning ana shu xususiyatlari ma’ruza o‘qishga ta’sir qiladi. Shundagina tinglovchining nafaqat qulog‘ini, balki qalbini ham zabt eta oladigan namunali nutq shakllanadi.

Pedagog muloqot qilish san’atiga ega bo‘lishi lozim, kerakli muomala ohangi va munosabat usulini tanlashni bilishi kerak, boshqacha aytganda, o‘quvchilarga individual yondashishni bilishi lozim. O‘quvchilar bilan sun’iy pand-nasihatli, oshna-og‘aynilik ohangida gaplashish mumkin emas. Pedagog doim bolalarning katta guruhi va ular bajarayotgan ko‘p jarayonlar bilan ish olib boradi, ularning barchasi o‘qituvchi nazaridan chiqib ketmasligi kerak. Pedagog uchun yana bir muhim narsa bu o‘quvchining tashqi ko‘rinishidan uning ruhiy holatini aniqlash.

Pedagogik munosabat —pedagogning o‘quvchilar bilan tarbiya maqsadida aloqa o‘rnatishidir. Pedagogik munosabatda gapirish madaniyatiga (talaffuz tarzi, nutq ohangi, orfoepiya) to‘g‘ri nafas olishga, ovozni qo‘ya bilishga o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Og‘zaki nutq mahoratini mukamalligi o‘qituvchining kasbida ko‘p gapirishi bilan emas, balki ma’noli so'z orqali ta’sir uslublarini qo‘llash orqali

belgilanadi. Pedagog o‘z ovozini, yuzini boshqarishga, pauza tutishga, gavdani, imo-ishorani, mimikani tutishga o‘rganishi kerak. Pedagogik munosabat muammolariga amerikalik pedagoglar katta e’tibor beradi. J.Brofi va T.Guddning «O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari» kitobida o‘qituvchining o‘quvchilarni ajratib munosabat qilishga asoslangan «subyektiv» munosabatlar xususiyatlari tahlil qilinadi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, pedagoglar ko‘proq yoqimtoy o‘quvchilarga yaxshi munosabatda bo‘lar ekan. Ular uchun beparvo o‘quvchilar e’tibordan chetda qolib, aql-zakovatli, intizomli, harakatchan o‘quvchilarga nisbatan yaxshiroq muomalada bo‘lishadi. Sust, erksiz, lapashang o‘quvchilar ikkinchi o‘rinda qolib, mustaqil, faol, o'ziga ishongan o‘quvchilarni yoqtirmas ekan.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. *Muloqot texnikasi nima uni qanday izohlaysiz?*
2. *Muloqot texnikasining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?*
3. *Muloqot texnikasini shakllantiruvchi omillarga misollar keltiring?*

4-Mavzu: XULOSA, PEREFRAZA, SITATA VA HAVOLA YOZISH

Reja:

1.Tadqiqotda xulosa va perefrazaning o‘rni.
2. Tadqiqotda sitata va havolalarning qollanishi.
3.Mavzu sarlavhasi va abzatsning tadqiqotdagi vazifasi.

Tayanch so‘z va iboralar: *Tadqiqot, xulosa, xulosalash, perefraza, perefrazalash, sitata, havola, mavzu sarlavhasi, abzats.*

Tadqiqotda xulosa va perefrazaning o‘rni

Xulosa va perefraza. Oliy o‘quv muassasalaridagi talabalar uchun elektron ta’limning tajribasini baholash. Bu terminning bir qator talqinlari mavjud, ammo bu maqolada “elektron ta’lim” internet orqali ma’lumot almashiladigan ixtiyoriy turdagi ta’limga tegishlidir. O‘rganish bilimlarga asoslangan zamonaviy iqtisodiyotning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Hisoblash mashinalari va texnologiyaning taraqqiyoti natijasida, internet bilimlar almashishning muhim vositasiga aylandi. Ko‘plab tadqiqodchilar (Veb va Kirstin, 2003; Honiga va boshqalar, 2006) sog‘liqni saqlash va biznesda elektron ta’limni baholashgan, ammo hozirgacha oliy ta’lim muassasalari talabalarining bunday ta’lim tizimiga yetarlicha e’tibor berilmagan. Bu

tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalaridagi elektron ta’lim tizimi bo‘yicha o‘qiyotgan talabalarning tajribalarini o‘rganish edi.

Avvalo, bir necha tadqiqotlar olib borildi, keyin esa 200 ta talabalarning elektron ta’lim tizimidagi tajribalarini o‘rganish uchun so‘rov o‘tkazildi.

Shu narsa aniqki, bu tadqiqot ma’lum bir chegaralar bilan cheklandi, asosan, talabalarni tanlash, bu asosan farmatsevtika va qishloq xo‘jaligidagi talabalar bilan cheklangan. Ish quyidagicha shakllangan. Birinchi bo‘lim, asosan, talabalarning tajribasi borasida chegaralarga e’tibor qaratilgan tadqiqotlarning tahlilini o‘z ichiga oladi. Ikkinchisi esa so‘rovning metodologiyasi bilan natijalarning tahlilini o‘zida mujassamlashtiradi va oxirgisi elektron ta’lim dasturlarini olib borishning oqibatlarini qamrab oladi.

Xulosa, odatda, kirishga qaraganda qisqaroq va turlicha bo‘lishi lozim. Kopchilik maqolalar “sharhlar” yoki “xulosalovchi izoh”dan iborat bo‘lishi mumkin. Ammo talabalar ishida yakinlovchi bo‘lim argumentlarni umumiylashtirishi va asosiy savolga javob topilganligini kitobxonga tushuntirishi lozim.

Yaxshi xulosalashning siri nimada?

Xulosalash jarayoniga oddiy hayotda ko‘p marta duch kelamiz. U biror narsa haqidagi asosiy(umumiy) fikrni ifodalaydi.

Xulosalar

Xulosalash va perefrazalash (ma’noni boshqa so‘zlar yordamida ifodalash)

Odatda esseda xulosalash va perefrazalash birgalikda ishlatiladi. Xulosalashning maqsadi ma’lumotlar hajmini yetarli darajagacha qisqartirish va uzundan uzoq ma’lumotlarni qisqa hajmga keltirishdan iborat bo‘lsa, perefrazalashning maqsadi esa umumiy ma’noni saqlagan holda ma’lumotni asl manbadagidan farqli qilib, o‘zgartirib yozishdan iboratdir. Bularning ikkalasi ham ko‘chirmachilikning oldini olish uchun qo‘llaniladi Xulosalashning bosqichlari Siz xulosalashda mavzuga doir eng muhim ma’lumotlarni berishingiz yoki mavzuga to‘liqroq to‘xtalib o‘tishingiz mumkin. Odatda, xulosada asosiy fikrlarni qo‘shimcha qismdan (keltirilgan misollar va ularning isbotlaridan) xoli tarzda yozishga e’tibor qaratiladi.

Quyidagi xulosalash bosqichlariga e’tibor bering va ularni to‘g‘ri (ketma-ket) tartibda joylashtiring.

Xulosani o‘z izohlari asosida yozish. Bunda tuzilishni o‘zgartirish ham mumkin.

Asosiy fikrlarni marker yordamida belgilab borish.

Asosiy fikrlar uchun izohlar yozib olish (perefrazalagan holda).

Barcha kerakli fikrlar bildirilgan va ixchamlik ta’minlanganligini tekshirish maqsadida xulosani qayta tahlil qilish.

Asl manbani e’tibor bilan o‘qish va yangi, tushunish qiyin tuyulgan so‘zlarni tahlil qilish.

Perefrazalash (asosiy ma’noni saqlagan holda, fikrni boshqa so‘zlar yordamida ifodalash).

18-asrda, Fransiya va Germaniyadan oldin, Britaniyada sodir bo‘lgan industrial inqilob to‘g‘risida ko‘plab munozaralar davom etib kelmoqda. Ushbu gapni quyidagicha perefrazalash mumkin:

Industrial inqilobning nima sababdan boshqa joyda emas, balki aynan Britaniyada sodir bo‘lgani hozirgi kunga qadar tortishuvli savollardan biri bo‘lib kelmoqda.

Odatda ta’sirchan perefraza:

• asl manbadan o‘z shakliga ko‘ra farqlanadi
• asl manbadagi so‘zlarning sinonimlaridan iborat bo‘ladi
• asosiy ma’noni saqlagan bo‘ladi
• asl manbadagi ba’zi bir qismlarni o‘zida mujassamlashtiradi (misol uchun “Industrial inqilob”, “18-asr”)

Perefrazalash va uning yo‘llari (usullari):

• a) so‘zlarning sinonimlarini qo‘llash orqali:
• Aytadi > keltirib o‘tadi; 18-asr > 1700-yillar; tejamoq > kam xarajat qilmoq
• b) so‘z turkumlarini o‘zgartirish orqali:
• Izoh (ot) > izohlamoq (fe’l); foyda keltiradigan, foydali (sifat) > foyda (ot)
• c) so‘zlar ketma-ketligini o‘zgartirish orqali:
• Britaniya industrial inqilobining asosiy sabablari talabni tahlil qilish orqali o‘z yechimini topishi mumkin.
• Talabni tahlil qilish orqali Britaniyadagi industrial inqilobning sabablarini topish mumkin.
• Amaliyot mashqlarida 3ta usul ham bir vaqtning o‘zida ishlatiladi. Barcha so‘zlar o‘z sinonimlariga ega emasligini hisobga olgan holda, ularning hammasini perefrazalash maqsadga muvofiq emas.

Havola, sitata, abzats

Havola (ma'lumot olingan manbani keltirib o‘tish) va sitatalar

Essening saviyali bo‘lishi olib borilgan tadqiqotlar va ko‘plab esselarning mavzuga doir bildirgan fikrlarini o‘rganib chiqishni talab etadi. Shu sababdan o‘z esseingizda qaysi adabiyotlardan foydalanganingizni keltirib o‘tishingiz maqsadga muvofiqdir. Bu bob sizga quyidagilar haqida ma’lumot beradi:

- Sitatani matn ichida keltirish
- Havolaning asosiy shakllari
- Sitatalardan foydalanish
- Foydalanilgan adabiyotlarning umumiy ro‘yxatini keltirib o‘tish

Havolalarni qo‘llash qay darajada ahamiyatli?

Havola va sitatalar qo’llanilishining 3 ta asosiy sababi mavjud:

a) Siz mavzuni bir qancha adabiyotlarni o‘qib-o‘rgangan holda izlanish olib borganingiz va uni yoritganingizni ko‘rsatish (bu sizning esseingiz qadrini oshiradi).

b) Esseni o‘qigan shaxs mavzu to‘g‘risida ko‘proq ma’lumot olgisi kelgan taqdirda, havoladan foydalanishiga imkon yaratish.

c) Ko‘chirmachilikning oldini olish. Ko‘chirmachilikning oldini olish to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish uchun kerak.

Sitata va havolalar

Foydalangan ma’lumotlaringiz manbalarini to‘g‘ri ko‘rsatilishi muhim hisoblanadi. Siz buni ikki xil usulda amalga oshirishingiz mumkin. Ikki usulda ham kurs ishi oxirida foydalanilgan havola va sitatalatni qaytadan keltirib o‘tilishi lozim.

Smit (2009) fikriga ko‘ra foydali sport vositalari (transportlari) mantiqsizdir. Ular qimmat bo‘lishiga qaramay, yo‘llarda deyarli haydalmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda bu transportlar yo‘l xavfsizligi uchun keraksizdirlar (Smit, 2009:37). (Bu yerda gap qimmat sport avtomobillari haqida ketmoqda).

Sitatalarni keltirish.

Havola fe’llari. Odatda havola va sitatalar ma’lum bir fe’llar vositasida keltiriladi:

Bu fe’llar hozirgi zamonda ham, o‘tgan zamonda ham bo‘lishi mumkin. Odatda, hozirgi zamonning ishlatilishi ma’lumotning yangi va hali o‘z kuchini saqlab turganligiga ishora qiladi. O‘tgan zamonning ishlatilishi esa buning aksi, ya’ni ma’lumot eski va o‘z kuchini yo‘qotgan ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi mumkinligiga ishoradir. Ba’zi bir hollarda eski ma’lumotlar ko‘proq foyda keltirishi mumkin.

Havola shakllari. Kurs ishi mavzusiga qarab, havolaning turli shakllaridan foydalanish mumkin. O‘qituvchi sizga yo‘nalish beradi, siz esa o‘qituvchi aytgan ma’lumotlarni kutubxona veb saytidan topishingiz mumkin. Har qanday holatda me’yorga amal qilish juda muhim hisoblanadi. Quyida havolaning asosiy shakllari keltirib o‘tilgan:

a) Garvardcha shakl, bu havola shakli odatda fan va biznesga doir mavzularda ko‘p qo‘llaniladi.

b)Vankuvercha shakl, ilm-fan va tibbiyot mavzulari doirasida keng qo‘llaniladi. Sitatadan so‘ng biror son yozib qo‘yilgan holda, ish so‘ngida unga havola yozib qo‘yiladi.

Jasanoff zaharlanish (infeksiyalanish) xavfi ortib borayotganidan xavotirda ekanini aytmoqda.

c) Kolontitul usuli, eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri bo‘lib, bu usulda olingan manba bet so‘ngida keltirib o‘tiladi.

Fransiya revolutsiyasi ta’siri butun Yevropa bo‘ylab sezildi.

Karl Vildavsky, Eraning yakunlanishi: Ispaniya 1785-1815 (Dublin: Dublin Universititeti nashriyoti, 2006), 69-bet.

Havola murakkab jarayon hisoblanib, bunda talaba yo‘riqnomaga ehtiyoj sezishi mumkin. Bunda sizga universitetingiz sayti ko‘makchi bo‘lishi mumkin.

Sitatalardan foydalanish. Sitatalardan foydalanish deganda, biror bir shaxsning ma’lum mavzu doirasidagi fikrlarini aynan keltirish tushuniladi. Sitatalardan me’yorida foydalanish ishingiz qadrini oshiradi. Sitatalardan quyidagi hollarda foydalanish maqsadga muvofiqdir:

• Sitata muallifining aynan gapi o‘zgacha ma’noni anglatsa;
• Muallifning aynan gapi siznikiga qaraganda qisqa va lo‘nda bo‘lsa;
• Muallifning aynan gapi barchaga ma’lum va mashhur bo‘lsa.

Barcha sitatalar manbaga ishora qiluvchi qisqa frazachalar bilan berilishi va sizning fikringizga mos bo‘lishi kerak.

Bu fikr ko‘pchilikka ayondir. Fridman aytganidek, “Inflatsiya–bu soliq solishni qonuniylashtirish talab qilinmaydigan shakli hisoblanadi” (1994:93)

a) Qisqa sitatalar bittalik qo‘shtirnoq ichiga, sitata ichidagi sitatalar esa ikkitalik qo‘shtirnoq ichiga olib yoziladi:

Jeyms aytib o‘tganidek: ‘Martinning “ichki makon” to‘g‘risidagi konsepsiyasi chuqur tahlilni talab qiladi.”

b) Uzunroq sitatalar satr boshidan boshlanadi yoki kichikroq qilib yoziladi. Bu holatda, hech qanday qo‘shtirnoq qo‘llanilmaydi.

c) Sanadan so‘ng, bet raqamining berilishi zarurdir.

d) Sitatalar asl manbadagiday bo‘lishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Agar ma’lum bir qismlar keraksiz bo‘lsa, shu joyda (...) belgisidan foydalanishingiz mumkin:

“Tarixda juda kam ixtirolar ... mobil telefoniday ahamiyatga ega bo‘lgan”

e) Ba’zi bir so‘zlar izoh talab qilishi mumkin va bunday hollarda to‘rtburchak qavslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Yangi g‘oyalar [ozodlik haqidagi] qadimgi dunyo g‘oyalaridan butunlay farq qiladi.

bo‘limlarga bo‘lib, mavzuni tushunishni osonlashtiradi. Bu qism asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratadi:

Abzatsga misol

Quyidagi abzatsni tahlil qiling.

“Ko‘chmas mulk egaligini rag‘batlantirish kerakmi?” deb nomlangan essening kirish qismidan olingan. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ko‘chmas mulkchilik darajasi juda xilma-xil. Misol uchun, Germaniya eng past darajaga ega, ya’ni 42%, Ispaniya esa ikki baravar ko‘p 85%. AQSh va Buyuk Britaniya deyarli bir xil ko‘rsatkichga ega, ya’ni 70%. Bunday o‘zgarishlarning sababi iqtisodiydan ko‘ra madaniy va tarixiylikni ko‘rsatadi, chunki yuqori ko‘rsatkichlar rivojlangan davlatlarda mavjud bo‘lganidek, qoloq davlatlarda ham bor. Bu yerda xalqning farovonligi va ko‘chmas mulkchilik darajasi o‘rtasida bog‘liqlik yo‘q.

Abzats quyidagicha tahlil qilinishi mumkin:

Mavzu sarlavhasi - Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ko‘chmas mulkchilik darajasi juda xilma-xil;

1) 1-misol – Misol uchun, Germaniya eng past darajaga ega, ya’ni 42%, Ispaniya esa ikki baravar ko‘p 85%;

2) 2-misol – AQSh va Buyuk Britaniya deyarli bir xil ko‘rsatkichga ega, ya’ni 70%;

3) Sabab – bunday o‘zgarishlarning sababi iqtisodiydan ko‘ra madaniy va tarixiylikni ko‘rsatadi, chunki yuqori ko‘rsatkichlar rivojlangan davlatlarda mavjud bo‘lganidek, qoloq davlatlarda ham bor;

4) Xulosa – bu yerda xalqning farovonligi va ko‘chmas mulkchilik darajasi o‘rtasida bog‘liqlik yo‘q.

Bu misollar quyidagini ko‘rsatadi:

a) Abzats bir mavzuga bog‘liq bo‘lgan holda, bir necha gaplardan tashkil topgan. Abzatslarga bo‘lish muallif va kitobxonning argumentlar bilan mukammal mashg‘ul bo‘lishi uchun yordam beradi;

b) Abzatsning hajmi matn turiga qarab turlanadi, ammo, odatda, u to‘rt yoki besh gapdan iborat bo‘ladi.

c) Odatda (har doim emas), birinchi jumla mavzuga kirish bo‘lib xizmat qiladi. Keyingilari esa ta’riflar beradi, misollar, qo‘shimcha ma’lumotlar, sabablar va xulosalar;

d) Abzats qismlari o‘zaro qalin shriftli ibora va bog‘lovchilar bilan farqlanadi.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar:

1- topshiriq. Essening kirishi, odatda, nimadan iborat bo‘ladi? Quyidagi ro‘yxatga e’tibor bering va ulardan qo‘shiladigan punktlarni tanlang.

Tarkibiy qism	Ha/yo‘q
- *Sarlavhadagi notanish so‘zning ta’rifi*	
- *Essening predmeti haqidagi fikringiz*	
-*Mavzu bo‘yicha o‘qigan manbalaringizni keltirib o‘tish*	
-*Kitobxonni qiziqtirish uchun fikr yoki savol*	
-*Buni yozishdan sizning maqsadingiz*	
-*Sizning savolga javob berishga moslashgan uslubingiz*	
-*Mavzu haqida qisqa holat*	
-*O‘zingiz o‘rnatgan chegara*	

Kirishning tarkibiy tuzilishi barcha kirishlar ham yuqoridagi elementlarni o‘zida mujassamlashtirmaydi.

1-Quyidagilarning qaysi biri asosiy va qaysi biri ixtiyoriy bo‘lishini tanlang.

1 - mashq. Berilgan so‘z birikmalari asosida shunday gaplar tuzingki, ularning kesimi majhul nisbatdagi fe’llardan iborat bo‘lsin.

O‘z roziligi bilan, yetakchi mutaxassis lavozimiga, mehnat shartnomasidagi muddat tugashi munosabati bilan, moliyaviy yo‘qlama o‘tkazish uchun, O‘zR MK 12- moddasining 2- bandiga ko‘ra, shtat jadvali bo‘yicha, malaka oshirish kursida bo‘lishi davrida, mashg'ulotlarda qatnashmaganligi sababli, oylik maoshi 30000 so‘m miqdorida, sinash muddati bilan, taftish o‘tkazish uchun.

2 - mashq. Quyida berilgan zaruriy qismlami tartib bilan joylashtirib, ular asosida so'rov xati namunasini yarating.

Bu qurilma bizni juda qiziqtirdi. universitetimiz yosh olimlari tomonidan yaratilgan oqova suvlami tozalash qurilmasi. «Ekolot» xalqaro jamg'armasi raisi A. Maqsudov. Bu haqda «Ma’rifat» gazetasida xabar chop etildi. Shu sababli Sizdan ushbu qurilmaning texnik tavsifi, yo‘riqnomasi va modelini yuborishingizni so‘raymiz. Iqtisodiyot litseyi direktori M.Saidovga.

3 - **mashq.** Quyidagi qurilmalar asosida gaplar tuzing va shu gaplar asosida matn yarating.



Mavzu yuzasidan savollar:

1.Ilmiy tadqiqot yozishda xulosa va perefrazaning qanday o‘rni bor?
2. Sitata, havola va abzatsning ilmiy tadqiqotdagi ahamiyati?
3. Havolalarni qo‘llash qay darajada ahamiyatli?

5-MAVZU: MATN TURLARI VA TARKIBI

Reja:

1.Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.
2. Matn va uning ko‘rinishlar
3. Matn tahlili va tahriri.
4.Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume).

Tayanch so‘z va iboralar: *Publitsistik uslub, matn, mikromatn, makromatn, ma’lumotnoma matni, ijodiy-tavsifiy matn, dialogik matn, monologik matn, badiiy tahlil, rezyume.*

Publitsistik uslub siyosiy-ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Bu uslubning yozma turiga publitsistik maqolalar, felyeton, murojaatnoma, xatlar, chaqiriqlar kirsa, og‘zaki turiga notiqlik kiradi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ‘ibot uslubi bo‘lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o‘tkir va ta’sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Shunga ko‘ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo‘yoqdor so‘zlarni qo‘llash) ham o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo‘shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatiladi.

Matn va uning ko‘rinishlari

Ma’lum bir shaxs tomonidan ayrim voqea-hodisa, narsa-buyumning izchil tasviri va tavsifi uchun tuzilgan gaplar sirasi matn deyiladi.

Matn ko‘rinishlari 2 xil bo‘lib, ular mikromatn va makromatndir.

Bir necha gaplarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikga ega bo‘lgan qo‘shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og‘zaki nutq parchasi mikromatn deyiladi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi.

Matnning turlari ham 2 xil: ma’lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn.

Ma’lumotnoma matnida bo‘lib o‘tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Ijodiy-tavsifiy matn so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviri yoki xabar, ma’lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir. Ilmiy, publitistik va badiiy uslublar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko‘rinishlaridir.

Dialogik matnning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.

Dialog (yun. dialogos – gaplashish, suhbat) -

1) ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti, suhbat;

2) adabiy – badiiy matn komponenti, asardagi personajlarning nutqiy muloqoti berilgan o‘rinlar. Hozirgi zamon prozasi rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi; zamonaviy epik asarlarda dialog salmog‘ining ortishi kuzatiladiki, bunga turlararo sintezlashuv, badiiy adabiyotning boshqa san’atlar bilan o‘zaro aloqasi natijasi sifatida qarash mumkin;

3) falsafiy – publisistik mazmun yo‘nalishidagi janr, unda qo‘yilgan masala bir necha kishining suhbati shaklida muhokama etiladi. Dialog janriga antik davrning Suqrot, Aflotun singari mutafakkirlari asos solganlar. Keyinchalik o‘rta asrlar, Uyg‘onish davri va Yevropa ma’rifatchilik adabiyotida ham dialog janri ancha faol bo‘lgan. O‘zbek adabiyotida dialogning ildizlari munozara janriga borib taqaladi. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotida dialog janri, unga xos unsurlardan ma’rifatchilik g‘oyalarini ommalashtirishda samarali foydalanildi. Jumladan, Fitratning “Munozara”, “Bedil” asarlarini dialog janri namunasi sanash mumkin.

Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

Monolog (yunon. monos – yakka, logos – so‘z) - yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, o‘zgalar replikalari bilan bo‘linmagan nutqi. Monolog og‘zaki shaklda (turli yig‘inlardagi nutq, ma’ruza, hisobotlar) ham, yozma shaklda (publisistika, memuarlar va h.) ham keng qo‘llanadi. Badiiy adabiyotda monologlardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Ayniqsa, dramatik asarlarda monologlarning badiiy – estetik vazifalar doirasi ancha keng.

Monolog – dramatik personajning ruhiy holati, uning ongiyu qalbida kechayotgan jarayonlarni tasvirlashning asosiy shakli. Ayni chog‘da, shartli ravishda tasvirlanuvchi bunday ruhiy jarayonlar voqealarga g‘oyaviy – hissiy munosabatni ifodalash, ayrim muhim tafsilotlarni berish, syujet rivojini asoslash kabi qator muhim funksiyalarni ham bajaradi. Monolog lirikaning ustuvor nutq

shakli, lirik qahramon kechinmalari, asosan, uning monologi orqali ifodalanadi. Bu narsa ijroviy lirika namunalarida, ayniqsa, yaqqol koʻzga tashlanadi, shuning uchun amaliyotda bunday she'rlar monolog deb ham yuritiladi (A. Oripov. " Hamza"; X. Davron. "Abulhay soʻzi"). Sifat jihatidan monologning turli koʻrinishlari mavjud (q. badiiy nutq, ichki monolog).

Matn tahlili va tahriri

Badiiy tahlil - matn tahlilining murakkab turlaridan boʻlib, unda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini oʻrganishdir.

Badiiy matnda kishilarning munosabatlar doirasida bir-biri bilan bogʻlangan kishilar hayotining ma'lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Bu voqealarda davrning siyosiy ijtimoiy, madaniy va ahloqiy hayoti oʻz aksini topadi.

Matnning adabiy tahlilida quyidagi maslalarga alohida e'tibor berilishi lozim:

1. Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida olijanob fazilatlarini ulugʻlash, adolat va xalqparvarlik, doʻstlik va qahramonlik, muhabbat erkinligi va unga sadoqati asarni gʻoyaviy mazmunini tashkil qiladi. Asarda Xisrav, Yosumon kabi yovuz kuchlar bilan Farhod, Shirin, Mehnbonular oʻrtasidagi kurash koʻrsatiladi. Shoir Farhod, Mehnbonu, Shirinlarning barcha harakatlariga xayrixohlik bildiradi. Shohni adolatli boʻlishiga undash gʻoyasini ilgari suradi.

2. Tahlilda asarning mazmuniga ham shakliga ham e'tibor berish va mazmunning yetakchi rolini ta'kidlab oʻtish zarur.

3. Asar tahlilida obrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bogʻliq holda oʻrganiladi.

4.Asar syujeti va kompozisiyasini oʻrganish ham adabiiy tahlilning asosiy vazifasidir. Badiiy asardagi mavzu, obraz, til, kompozisiya, muayyan gʻoyani ifodalaydi. Mavzu va gʻoyaning aktualligi va xalqchiligi, mazmun va shaklning oʻzaro mosligi, obrazning tipikligi va xaqqoniyligi syujet va kompozisiyaning pishiqligi, badiiy tilning tasviriyligi va ekspressivligi adabiy tahlil jarayonida aniqlanadi.

Matn tahlilida tahlilning yuqoridagi u yoki bu turidan foydalaniladi. Matnni sharhlash soʻz va soʻz shakllari badiiy tasvir vositlarining asar gʻoyaviy va estetik mazmunini oshirishdagi roli izohlanadi. Matnni sharhlashda lingvistik aspekt asosiy oʻrinni egallaydi. U traditsion adabiy tahlilda ham yetakchi sanaladi, chunki u matnning estetik strukturasi va badiiy tasvir vositlarini oʻrganishga koʻmaklashadi.

Badiiy matn murakkab va ko‘p qatlamdir. Uni tahlil qilishdan maqsad- ijodkor o‘ylagan ma’no va ichki kechinmalarni maksimum holda payqab olishdir. Ijodkorni o‘ylagan narsasi faqat badiiy asar orqali namoyon bo‘ladi.

Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume)

Rezyume fransuzcha “résumé” so'zidan kelib chiqqan va sodda qilib aytganda, qisqacha izoh ma’nosini bildiradi. Rezyume ishga topshirayotgan inson to'g'risida ma’lumotni taqdim etadi, ya’ni uning ismi, ma’lumot darajasi, ish tajribasi, qizishlari va hokazo.

Rezyume hozirgi kunda ish qidirishda eng muhim hujjat hisoblanadi.O'zbek tilida bunday hujjat “tarjimayi hol” va “shaxsiy ma’lumotnoma” deb ham atalishi mumkin, lekin rezyumening shakli bu hujjatlardan biroz farqlidir. Rezyume asosan ish izlovchilar tomonidan ishga topshirayotganda yuboriladigan hujjat hisoblanadi, lekin u boshqa maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, tashkilot direktori yoki loyiha menejerining rezyumesi grant taklifi bilan birgalikda donor tashkilotga topshiriladi.

Rezyumening asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy ma’lumot
a. Ism-sharif (talab qilinadi)
b. Murojaat manzillari: telefon, email, yashash joyi (talab qilinadi)
c. Jins (majburiy emas)
d. Millat (majburiy emas)
e. Tug’ilgan sana (majburiy emas)
2. Qisqacha mazmun va yoki professional maqsad (ixtiyoriy)
a. Bir yoki ikki gap bilan qisqacha eng muhim jihatlarini sanab o‘tish.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun vazifalar:

1. O‘zingiz qiziqqan mavzuda matn tuzib, uni tahlil qiling.
2. Mavzuga doir slaydli taqdimot tuzing.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Matn va turlarini tavsiflab bering.
2. Xizmat xatlari va uning turlarini izohlab bering.
3. Matnning tahlili va tahriri haqida nimalarni bilasiz?
4. Rezyumening asosiy qismlarini qanday turlardan iborat?

6- MAVZU: MAQOLA VA UNING TURLARI

Reja:

1. *Maqola haqida umumiy ma'lumot.*
2. *Maqolaning tarkibiy qismlari.*
3. *Bosh maqolaning o'ziga xos ko'rinishlari.*
4. *Maqolaning kundalik hayotda tutgan o'rni.*
5. *Ilmiy maqola qanday yoziladi?*

Tayanch so'z va iboralar: *Maqola, kirish, asosiy qism, xulosa, maqolaning sarlavhasi, bosh maqola, nazariy maqola, kalit so'zlar, publitsistik uslub.*

Maqola – publitsistik uslubga xos janr. Maqolada kundalik ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalar tahlil qilinadi; nazariy, ommaviy jihatdan umumlashtiriladi; davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar ilg'or ish tajribalari aks ettiriladi. U adabiy yoki ilmiy mazmunda bo'lib, hajm jihatidan ancha katta bo'ladi. Maqola hayotning muhim va dolzarb masalalariga bag'ishlanishi yoki ilm-fanning biror sohasini yoritishi mumkin. Shunga ko'ra maqolalar ilmiy, uslubiy, publitsistik kabi turlarga bo'linadi. Maqolalar uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi:

1. Kirish – bunda tanlangan mavzuning dolzarbligi belgilanadi.
2. Asosiy qism – muallif tomonidan rejalangan fikr, muammo yoki yangilik bayon qilindi.
3. Xulosa – mavzu yuzasidan muallifning xulosalari, tavsiyalari beriladi.

Maqolalar ilmiy yoki publitsistik uslubda, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilingan holatda yoziladi. Maqola yozishda maqolaning mavzusini belgilash va unga sarlavha tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning sarlavhasi qisqa, lekin e'tiborni jalb qiladigan va albatta, maqolaning bosh mavzusini yoritib beradigan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, maqolalarda muallif haqida qisqacha ma'lumot va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi: so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub.

Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng mas’uliyatli maqolasi hisoblanadi.
Ushbu maqolada ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o‘quvchilarga yetkazish – asosiy vazifa hisoblanadi. Bunday maqola ma’lum bir masala yuzasidan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy haqiqiy yo‘lini belgilab berishi lozim. Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonunlari davrning dolzarb masalalari bosh maqolada yoritiladi.

Nazariy maqola va targ‘ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g‘oya, istiqlol mafkurasining asoslari va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o‘quvchining g‘oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Muammoli maqolada esa munozara va bahs asosiy o‘rinda bo‘ladi hamda muallif o‘z qarashlarini o‘rtaga tashlaydi.

Maqola so‘zi keng ma’noda gazeta, jurnal, radio, televideniye, shuningdek, to‘plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to‘g‘risida aniq, asoslangan, izchil ma’lumot berishda qo‘llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta’riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me’yorga qat’iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe’llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi. Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo‘ljallanganligiga nisbatan o‘zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma’lumotlar berish bilan mutaxassis -largagina mo‘ljallanishi yoki bunday ilmiy ma’lumotlar keng ommaga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo‘lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo‘lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko‘pchilikka mo‘ljallangan ma’ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko‘rinishlaridir.

Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta’minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

Maqola arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, *nutq, kichik asar* ma’nolarini bildiradi. Shuningdek, to‘plam, jurnal, gazeta va shu kabilar uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi uncha katta bo‘lmagan ilmiy yoki publitsistik asardir. Publitsistika esa lotincha “publikus” so`zidan olingan bo‘lib, “ijtimoiy” ma'nosini bildiradi hamda adabiyotning alohida turini tashkil etadi. U yozilish uslubiga ko‘ra ilmiy va badiiy ijod

namunalaridan farqlanadi. Fanga aloqador asarlar ilmiy uslubda, badiiy ijod namunalari badiiy uslubda yaratilgani kabi publitsistik asarlarning ham o‘z uslubi mavjud. Publitsistik asarlar, avvalo, faqat publitsistikagagina xos ijtimoiy ruhdaligi bilan ajralib turadi. Fanning asosiy predmetini ilmiy nazariya, adabiyotnikini insonshunoslik tashkil qilsa, publitsistikaning asosiy predmetini ijtimoiy-siyosiy hayot, moddiy turmushdagi dolzarb muammolar tashkil etadi. Tasvir predmetining o‘zgachaligi, voqelikni ifodalash yo`nalishi va uslubining boshqachaligi jihatidan ham publitsistika ijod sohasining mustaqil turi hisoblanadi. Bundan tashqari, publitsistik asarlar ma'lum ijtimoiy-siyosiy, moddiy voqelikni baholash maqsadida yaratilishi bilan ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Ularda o‘quvchiga murojaat etish, ijtimoiy voqelikda faol ishtirok etishga chaqiriq ruhi etakchilik qiladi. Zero, publitsistik asarlar o‘quvchida hayot, mavjud ijtimoiy sharoit, tarixiy davr to‘g‘risida tushuncha tasavvur hosil etishga xizmat qiladi. Publitsistika ijtimoiy hayot yangiliklari, muammolarini tez va haqiqiy aks ettirish, tarixiy dalillarni umumlashtirish, baholash imkoniyatiga egaligi tufayli o‘zgachalik kasb etadi. **Maqola** publitsistikaning alohida janri sifatida o`ziga xos ko‘rinishlariga ega. U mavzusiga ko‘ra ijtimoiy-siyosiy, **ilmiy-ommabop** yoxud, adabiy-tanqidiy bo‘lishi mumkin. Va ularning har biri yana ichki bo‘lininsh hamda xususiyatlarga egadir. **Maqola**da ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg‘or ish tajribalari ommalashtiriladi. Nazariy maqola va targ‘ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g‘oya, istiqlol mafkurasining asoslargi va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o‘quvchining g‘oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Shu mantiqdan qaralsa, ilmiy-ommabop maqolalarning mohiyati oydinlashadi. Chunki **ilmiy-ommabop adabiyot**–xalq ommasini fan va texnika masalalari, yutuqlari hamda fan arboblari tarjimai hollari bilan tanishtirish uchun mo`ljallangan nashrlar (kitob, risola, jurnal va b.) hisoblanadi. Bu nashrlar ilmiy masalaning mohiyatini to‘la saqlagan holda uni keng omma uchun tushunarli uslubda bayon etadi, o‘quvchining g‘oyaviy-ilmiy saviyasini o‘stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Shunga o‘xshash **ilmiy-ommabop kinoda** barcha ilm jabhalari–fan, texnika muvaffaqiyatlari targ‘ib qilinadi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning turli jihatlarini aks ettiradi. Bunda tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari xulosalab ko‘rsatiladi, murakkab ilmiy muammolarni ommaga tushunarli qilib yetkazadi. Shu mantiqdan qaralsa, boshlang‘ich sinf o‘qish kitoblaridagi **ilmiy-ommabop maqolalar** o‘quvchilarning bilishi zargur hisoblangan ilmiy manbalar, tarixiy shaxslar faoliyati, ularning buyuk kashfiyotlari, yoxud, ko‘pgina sohalarda erishilgan fan va texnika yutuqlari o‘quvchilar tushunchasiga moslab bayon qilinadi. Demak, *ilmiy-ommabop maqola–ilmiy kashfiyotlar, ma’lumotlarni ommaga tushunarli qilib yetkazilishi hamda maqola janri uslubida bayon qilinishidir*.

Yozishdan oldin siz ilmiy maqolani va uning nima ekanligini yozishni tushunishingiz kerak. Ilmiy maqola ma’lum bir kichik mavzu bo‘yicha kichik tadqiqot. Uchta ilmiy maqolalar mavjud:

1. Ampirik - bu o‘z tajribasi asosida qurilgan maqola.
2. Ilmiy-nazariy - bu tadqiqotning aniq natijalarini tasvirlaydigan maqolalar.
3. Ko‘rib chiqish - bu tor doirada muayyan sohadagi yutuqlarni tahlil qiluvchi maqolalar.

Ilmiy maqola, har qanday boshqa kabi, muayyan tuzilishga ega bo'lishi kerak. Ilmiy uchun, tuzilishning asosiy qoidalari tanlanadi:

Sarlavha
mavhum - qisqa ta'rif;
kalit so'zlar;
kirish;
adabiyotlarni o'rganish;
asosiy qismi - metodologiya va natijalarni o'z ichiga olishi kerak;
xulosalar;
adabiyotlar ro'yxati.

Agar ilmiy jurnalda maqolani qanday yozish haqida gapiradigan bo'lsak, unda uning strukturasiga bo'lgan talablar umumiy qabul qilingan va yuqorida bayon qilinganidan farq qilmaydi, ammo har bir narsani batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Maqola sarlavhasi

Sarlavha yoki sarlavha butun tananing matnining tarkibiy qismidir. Bu yorqin va esda qolarli bo'lishi kerak. Sarlavha uzunligi 12 so'zdan oshmasligi kerak. Maqola sarlavhasi mazmunli va mazmunli bo'lishi kerak.

Xulosa

Xulosa ilmiy maqolaning qisqacha ta'rifi. Odatda, barcha maqola tugaganida asosiy matnning yuqorisida yozilgan. Tavsiya etilgan tezislar rus va ingliz tillarida 250 dan ortiq so'zni tashkil qiladi.

Kalit so‘zlar

Kalit so‘zlar o'qiydiganlar uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va Internetdan maqola topish uchun ham ishlatiladi. Ular maqolaning mavzusi va maqsadini aks ettirishi kerak.

Kirish

O‘quvchilarning kontseptsiyasini ilmiy maqolada muhokama qilinadigan narsalarni berish uchun kirish kerak. Bu erda sizning ishingizning amaliy va nazariy ahamiyatini kashf qilishingiz kerak. Shuningdek, iltimos, ishning dolzarbligini va yangilanishini ko'rsating.

Adabiyotni o'rganish

Adabiyotni o‘rganish ilmiy maqola uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Maqsad ushbu mavzudagi mavjud ishlarni baholashdan iborat.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maqola haqida ma’lumot bering.
2. Maqola va uning turlarini izohlab bering.
3. Bosh maqolaning o‘rni va ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Sohaga oid maqola yozishda nimalarga ahamiyat berishimiz kerak?

7-Mavzu: TAQRIZ VA ANNOTATSIYA MATNLARI

Reja:

1. Taqriz haqida umumiy ma’lumot.
2.Taqriz yozishda nimalarga amal qilish kerak?
3.Taqrizdan namunalar yozish.
4.Annotatsiya matni, tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.
5. Annotatsiya so’zining ma’nosi.
6.Annotatsiyaga namunalar yozish.

Tayanch so‘z va iboralar: *Taqriz, o‘zbek adabiyoti, ichki taqriz, ilm, fan, tezis, annotatsiya, darslik, o‘quv qo’llanma, tahlil, tavsif, mazmun*.

Taqriz haqida umumiy ma’lumot

Taqriz (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asarning g‘oyaviy badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o‘rni haqida ma’lumot bo‘ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko‘maklashadi. Ichki Taqriz ham bo‘ladi. Masalan, nashriyotga kelgan

badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asar ichki taqrizga beriladi, biroq bu taqriz matbuotda e'lon qilinmaydi.

O'zbek adabiyotida taqriz XX asr boshlarida vaqtli matbuot bilan teng rivojlana boshlagan. Endilikda taqriz o'zbek adabiy tanqindchiligining eng muhim janrlaridan bo'lib qoldi. Oybek, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, G'afur G'ulom kabi yozuvchilar, O`.Hoshimov, S.Husayn, Olim Sharafiddinov, V.Zohidov, I.Sultonov, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, I.Haqqulov va boshqa olimlar o'zbek adabiy hayotida chuqur iz qoldirgan taqrizlar yaratdilar.

Ichki taqriz ham bo'ladi. Masalan, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asar ichki taqrizga beriladi. Biroq, taqriz matbuotda e'lon qilinmaydi, rus tanqidchiligi tarixida taqrizning rivojida V.G.Belinskiyning roli katta. U taqrizni haqiqiy san'at darajasiga ko'tardi. Taqriz badiiy asar haqida shunchaki ma'lumot beruvchi janr darajasidan adabiy hayotning muhim masalalarini ko'taruvchi, kitobxonni hayot va adabiyot haqida o'ylashga o'rgatuvchi uning estetik didini tarbiyalashga yordam beruvchi janrga aylanadi. Taqriz xarakteriga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Masalan, kengaytirilgan annotatsiya tipidagi taqrizda asar haqida bibliografik ma'lumot beriladi. Tanqidiy yoki publitsistik maqola taqrizlarida konkret asar munosabati bilan biron muhim masala haqida fikr yuritiladi.

Ilm [bilim; fan; nazariya] – O'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot.

Fan [mahorat; ilm, bilim] - Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi.

Taqriz – saylanma bayonning bir turi. U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir. Taqrizda asar tanqidiy tahlil etiladi, shu nuqtai nazardan baholanadi. Asarning yutuqlari ham, nuqsonlari ham ko'rsatiladi. Taqrizchi o'zining da'volarini turli dalillar asosida isbotlay boradi, asarga ilmiy izohlar beradi.

Taqriz yozish odobi xolislikni, haqiqatdan chetlashmaslikni talab etadi. Taqriz qilinayotgan asarning yutuq va kamchiliklari, nazariy vaamaliy ahamiyati haqqoniy ko'rsatilishi lozim. Asarga baho berishda muallifning shaxsiyati, obro'si emas, balki uning (asarning) xususiyatlari, ahamiyati ko'zda tutiladi.

Taqriz yozishda quyidagi sxemaga amal qilinadi:

1. Tezis (umumiy holati) va uni ochib berish.
2. Kitob (film, teatr)ning baholanishi.

Taqrizning boshlang'ich qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi:

Kitob (film, teatr)da hikoya qilinadi.

Kitob (film, teatr)da muammolar ko'tariladi.

Taqrizni baholash qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi:

Men … hisoblayman – YA schitayu…

Mening fikrimcha… - Pomoemu…
Mening nazarimda… - Na moy vzglyad…
… menga yoqdi. – Mne ponravilsya (-las)…
… menda katta taassurot uyg‘otdi. - Bolshoe vpechatlenie na menya okazala…
Kitob (film, teatr) …o‘rgatadi. - Kniga (film, teatr) uchit…

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1- **mashq.** Taqriz namunasini o‘qing. Soha nashrlarida berilgan birorta ilmiy maqolaga taqriz yozing**.**

Taqriz namunasi:

Sadinova Nigina Safarovnaning «Badiiy matnlarda kontrastning lingvopragmatik xususiyatlari» (Anvar Obidjon, Usmon Azim, A’zam O‘ktam asarlari misolida) mavzusidagi 10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi avtoreferatiga

TAQRIZ

Mamlakatimizda ta’lim tizimi rivoji, o‘zbek tilining Davlat tili sifatida yurtimiz ichki va tashqi hayotida qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish, o‘qish-o‘qitishning barcha bosqichlarida tilimizning funksional imkoniyatlarini o‘rganishni takomillashtirishga oid qabul qilingan qator qonun va qarorlar tilimizning nutqning turli ko‘rinishlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish borasidagi ishlarning zamonaviy talablar darajasida amalga oshirilishi uchun zamin yaratdi. O‘zbek tilida kontrast hosil qiluvchi birliklarni nazariy jihatdan o‘rganish, o‘zbek tili poetik matnlari asosida ularning lingvopragmatik xususiyatlarini ko‘rsatib berish o‘zbek tilshunosligida o‘z tadqiqini kutayotgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «Kontrast atamasining mohiyati va uning tilshunoslikdagi talqini» deb nomlangan dastlabki bobi uch fasldan tashkil topgan. Birinchi fasl *«Kontrast va uning fanlararo tavsifi masalasi»* deb nomlanadi. Mazkur faslda ziddiyat tushunchasining keng qamrovligi, fanning barcha sohalari uchun birday taalluqli ekanligi hamda ularning barchasini birlashtirib turuvchi xususiyatlar to‘g‘risida fikr yuritilgan. Bu faslda ziddiyat hayotdagi mavjud qarama-qarshiliklar asosida yotishi, ularning badiiy ifodasi ekanligi, muallif maqsadiga bog‘liq holda syujetni harakatga keltirishda pragmatik imkoniyatlarga ega ekanligi, tilda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi bayon qilingan.

Uchinchi faslda fikrlar rivoji davom etar ekan, so‘z – konsept – kontrast munosabati, so‘z – tushuncha – kontrast munosabati kabi masalalarga oydinlik kiritilgan.

Ishning ikkinchi bobi «Kontrastning pragmatika va poetikaga munosabati hamda lingvistik va stilistik konteksti tavsifi» deb nomlangan. Bu bob to‘rt fasldan iborat bo‘lib, birinchi *faslda «Kontrast va pragmatika munosabati»* ochib berilgan. Bu faslda nutqiy akt tushunchasi mohiyati, uning o‘ziga xos bosqichlari va mezonlari, kontrast voqelanishida tutgan o‘rni kabi masalalar tahlil qilingan.

Bobning uchinchi faslida *«Kontrastning lingvistik konteksti va uning matnda ifodalanish usullari»* tahlilga tortilgan. Asar mavzusi va ruhiyatidan kelib chiqib muallif tomonidan tanlangan kontrast ifodalovchi antonimlar bir tomondan ijodkorning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadining amalga oshishini ta’minlaydi, ikkinchini tomondan esa matnda ifodalangan ziddiyatli holatlar to‘g‘risida kitobxonga ma’lumot beradi.

Bobning to‘rtinchi fasli kontrastning stilistik konteksti tavsifiga bag‘ishlangan. Tilimizda stilistik kontekst yuqori darajada kontekstual aloqalarni aks ettiradi, kontekstual ma’no ifodalaydi, bir ma’noni kuchaytirib, boshqalarining ta’sirini yo‘qotadi. Stilistik kontekst takrorlar va kontrastlar, ma’nosi yoki konnotatsiya xarakteriga ko‘ra ularning kontekstga yaqinligi ta’siri ostidagi so‘zlar, turli sathlardagi transpozitsiya, so‘zlarning noodatiy predmetlarga taaalluqli ekanligiga ko‘ra qo‘llanishi kabi belgilarga ega bo‘lib, ko‘pincha kontrastning o‘xshashlik bo‘yicha holati aks etgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «Kontrast badiiy matnning semantik-funksional asosi sifatida» deb nomlangan. Bob uch fasldan iborat. *«Kontrast voqelanishida pragmatik-uslubiy imkoniyatlar»* deb nomlangan birinchi faslda kontrast hosil qilishda vositalarning tutgan o‘rni to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Bobning *«Antiteza – o‘zaro zid obraz va tushunchalarni ifodalash vositasi»* nomli faslida poetik matnlarda antiteza ko‘rinishlari tahlilga tortilgan. Bunda kontrast hosil qiluvchi birliklarning poetik matndagi vazifasi avvalo, muallif munosabatini, voqelik faktlariga bergan bahosini ko‘rsatish, she’rdagi lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari, orzu-umidlarini aks ettiradi. Poetik matnda «do‘st-yov-g‘anim», «shoh-gado», «oqil-johil», «orzu-armon», «mard-nomard», «er-osmon-ko‘k», «sadoqat-xiyonat», «g‘am-shodlik», «yo‘qsil-amaldor» kabi tushunchalarning o‘zaro qarshilantirilishi antitezaning go‘zal namunalarini hosil qilganligi ko‘rsatib berilgan.

Bobning uchinchi fasli *«Oksyumoron kontrast hosil qiluvchi vosita sifatida»* deb nomlangan. Kontrast doirasida qaraluvchi oksyumoron ham mohiyatan zidlik asosiga qurilgan.

Har bir bob yuzasidan hamda tadqiqot bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarilgan.

Xulosa qilib aytganda, Sadinova Nigina Safarovnaning «Badiiy matnlarda kontrastning lingvopragmatik xususiyatlari» (Anvar Obidjon, Usmon Azim, A’zam O‘ktam asarlari misolida) mavzusidagi 10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasini tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etish mumkin.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi

mudiri **PhD, dotsent v.b. D.B.Yuldasheva**

1-topshiriq. O‘zingiz yoqtirgan kitobga taqriz yozing.

2 - mashq. Telefonda rasmiy so'zlashuvga oid dialoglardagi bo'sh o'rinlami to’ldirib, daftaringizga ko'chiring, nutqiy qoliplar shaklining tuzilishiga e’tibor bering.

1. — Allo, Olim Rahimovich kerak edilar, nashriyotdan qo‘ng‘iroq qil... .
— Hozir chaqiraman.
— Allo, Rahimov... .
— Assalomu alaykum. Men «O‘qituvchi» nashriyotining muharriri Ortiq Abdullayevman. Nashrga tayyorlanayotgan qo‘lyozmangiz... nashriyotga kelib ketishingiz... .
— Yaxshi, erta... borsam bo‘ladimi?
— Tushdan keyin kelganingiz... .
— Xo‘p, albatta, bora... .

2.— Alio, litseylar boshqarma... Mo‘minjon Mahmudovman.
— Eshita... Mo'minjon Qodirovich! Men xodimlar... boshlig‘i Anvar Qosimovman.
— Sizdan iltimos, Anvarjon, direktor bilan kelishgan... olimpiada hay’atiga kiritila... o'qituvchilar ro‘yxatini yubor...
— Nechta kishini tavsiya etish... lozim?
— Beshta tajribali o‘qituvchini yozsangiz, o‘zimiz tanlab olamiz. Tushunar...?
— Tushundim, Mo‘minjon Qodirovich.
— Yaxshi, soat olti... kutaman.
— Xo‘p, hozir tayyor... yetkazaman.

3 - mashq. Yuqoridagi dialoglarning oddiy so‘zlashuv uslubidan farqini tushuntiring.

1- topshiriq. Quyidagi matndan foydalanib, Insert jadvalini to‘ldiring.

V	+	-	?

“V”- men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

Adabiy jarayonda paydo bo‘lgan yangi asarni birinchi bo‘lib baholaydigan hozirjavob taqriz janrida ilmiy-estetik tahlil ixcham, siqiq shaklda, ommaga tushunarli tarzda o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun taqriz birgina asar tahlili orqali adabiy jarayondagi yangi tamoyillarni baholay oladigan xususiyatga ega. Taqriz muayyan asarning tahlili orqali ijodkorning hayot haqiqatini to‘g‘ri yorita olganligi, kitobxonga badiiy asarning qanday bo‘lishi haqida tasavvur bera oladi.

Bugungi adabiy jarayonda ham taqrizchilik ma’lum darajada rivojlanib bormoqda. Ammo u qay darajada taraqqiy etmoqda, bu sohada qanday yutuq va nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmoqda degan savollar tug‘ilishi, tabiiy. Shu jihatdan, 2006–2009 yillar oralig‘ida “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida bosilgan ayrim taqrizlarni ko‘zdan kechirdik. Mustaqillikning dastlabki davrlarida taqrizlar ko‘pincha “Kitobingizni o‘qidim”, “Doimiy hamroh”, “Nigoh”, “Va’da” ruknlari, ba’zan esa to‘g‘ridan to‘g‘ri “Taqriz” rukni ostida bosilar edi. Keyingi yillarni kuzatganda, “Nigoh” va “Va’da” ruknlari kam ko‘rinadi. “Doimiy hamroh” ruknida esa taqrizdan ko‘ra, yangi kitob haqida ma’lumotnomalar berilmoqda.

“Kitobingizni o‘qidim” ruknida bosilayotgan taqrizlar rang-barangligi bilan e’tiborni tortadi. “Tuyg‘ular musavviri” deb nomlangan taqriz (2008, №41) shoir Tursun Alining “Oy yaprog‘i” to‘plamiga bag‘ishlangan. U o‘quvchi diqqatini tortadigan so‘zlar bilan boshlanadi: “Sokin kuz oqshomida oyning ko‘kdan ming bir hayoda anhorga inganini va suv betida iymanibgina yuzaganini ko‘rganmisiz?”. Taqrizchi Sh. Subhon modern she’rlari bilan o‘zbek she’riyatida o‘z o‘rniga ega shoirning she’rlaridagi o‘ziga xoslikni ochib bera olgan, tahlillardan o‘quvchi qoniqadi. Shu bilan birga, to‘plamning kamchiliklari ham ko‘rsatilgan. Ijodkor keyingi she’rlarida bu nuqsonlarni takrorlamaslikka harakat qiladi, deb o‘ylaymiz. Haqiqatan ham samimiy dil izhorlaridan iborat taqriz o‘quvchini “dilkashu dardkash shoir bilan suhbat”ga chorlay oladi. Uni o‘qigan o‘quvchi shoir she’rlariga xolislik bilan berilgan bahodan shunday xulosa chiqaradi.

A. Ko‘chimovning “Ko‘zlarimning qarog‘idasan” she’riy to‘plamiga adabiyotshunos Q. Qahramonov taqriz yozgan (2006, №49).”Sermavj tuyg‘ular” deb atalgan taqrizda shoir she’rlaridan eng saralari tahlilga tortilgan. Shuning uchun shoirning bu to‘plami o‘quvchida qiziqish uyg‘ota oladi, ammo to‘plamning kamchiliklari haqida fikr yuritilmagan.

Taqrizning vazifasi, u yoki bu janrdagi badiiy asarning tahlili orqali uning adabiy jarayon va yozuvchi ijodidagi o‘rnini aniqlash, yutuq va kamchiligini ko‘rsatish, fikrini isbotlash va baholashdan iborat. Yangi asarni birinchi bo‘lib baholaydigan taqrizda ilmiy-estetik tahlil ixcham, siqiq shaklda, ommaga tushunarli tarzda o‘z ifodasini

topadi. Shuning uchun taqriz ayrim tanqidchilar aytayotganidek, faqat “kutib oluvchi janr” emas. Balki u bir asar tahlili orqali adabiy jarayondagi yangi tamoyillarni ko‘rsatadigan, uning yozuvchi ijodida tutgan o‘rnini tezlik bilan baholay oladigan estetik xususiyatga ega. S. Sayyidning “So‘z yo‘li” ikki jildli saylanmasiga shoir Mahmud Toirning (2009, №14) “Yog‘du ichra gullagan so‘z” deb nomlangan taqrizida buni ko‘rish mumkin. Taqrizchi, eng avvalo, she’rdan olgan taassurotlarini ifodali tarzda bayon etadi. Taqriz sarlavhani izohlash bilan boshlanadi: “Yog‘du ichra gullagan so‘z – she’r bo‘ladi. Bunday she’rning mazasi dardingga malham bo‘ladi… She’rdagi otash – so‘zdagi otash. Ochiq ko‘z bilan otashga o‘zini otgan odam – shoir bo‘ladi”. She’rdan ta’sirlangan bunday qalb izhorlarini o‘qigan kitobxon beixtiyor shoir she’rlariga qiziqib qolganini sezadi. Taqrizda “Saylanma”ning mundarijasi haqida so‘z yuritilmaydi, balki S. Sayyid she’rlari o‘ziga xos sharhlanadi, tahlil etiladi, shu orqali baholanadi. Shoir uslubining o‘ziga xos tomonlari ochiladi. Masalan: “Sirojiddin siylagan so‘zlarning bittasi – ayvon…”. (*Keyin ayvon so‘zi izohlanadi – Sh. A.)* “Uyingizning ayvoni – umringizning ayvoni… Shoir bejizga “Onam ayvonidan keldingmi, bahor?” deya entikmaydi. Yoki ota uyining devorlarini ***dil bilan oqlab berish****n*i xayol qilish shoirona jununlik emas. Balki ota-ona oldidagi farzandlik mas’uliyatini his qilishning yorqin e’tirofidir”. Ijodkor she’rlariga ana shunday shoirona baho berish bilan taqriznavis ikki muddaoga erishgan: birinchidan, o‘quvchiga yangi va yaxshi kitob haqida yetarli ma’lumot berib, uni she’riyatga oshno etmoqda, ikkinchidan, taqrizning vazifalarini to‘liq bo‘lmasa-da, bajarmoqda.

Tilga olingan taqrizlarda, birinchidan, yangi e’lon qilingan asar tahlilining mavjudligi, ikkinchidan, mazkur asarga adabiy-badiiy jarayon nuqtai nazaridan turib berilgan baho o‘z aksini topganligi ularning ijobiy xususiyatlaridir. Uchinchidan, asarning yozuvchi ijodida qanday o‘rin egallashi: bu – uning yutug‘imi, ijodiy g‘alabasimi yoki avvalgi asarlariga qaraganda orqaga chekinishmi, bu haqida fikr bildirilganda, taqrizlarning yanada mukammalligi ta’minlangan bo‘lur edi.

Shu bilan birga, taqriznavislikda bir xillik, ma’lum qoliplarga bo‘ysunish, baho berishdan ko‘ra maqtash, syujet voqealarini bayon etish kabi qusurlar ham uchraydi. Gazetaning (2004) 25-sonida birdaniga uchta taqriz bosilgan. Birinchisi, O. Sharafiddinovning “Ijodni anglash baxti” kitobiga taqriz bo‘lib, u tanqidni tanqid ruhida yozilgan. Ikkinchisi, X. Sultonning “Boburiynoma” asariga bag‘ishlangan “Ma’rifatning badiiy talqini” deb nomlangan taqrizda bu ma’rifiy romanning yutuqlari haqida so‘z yuritilgan. Uchinchi taqriz, shoir Mirpo‘lat Mirzoning “Saylanma”si bosilib chiqishi munosabati bilan yozilgan, adabiyotshunos olim E. Ochilov qalamiga mansub, “Hassos ko‘ngil mavjlari” deb nomlanadi. Unda shoir she’rlariga baho beriladi, ba’zilari tahlilga tortiladi, shoirning “serqirra iste’dod sohibi ekanligi” ko‘rsatiladi, ba’zan maqtovlar haddan oshiriladi: shoir ijodining “beqiyos samimiyati” haqida so‘z yuritilganda kitobxonda “hamma she’rlaridami?” degan ishtiboh

uyg‘onadi yoki shoirni “go‘zal va hassos ishqiy she’rlar muallifi sifatida mashhur” deb hisoblagan taqrizchi shunday she’rlarining nomlarini keltiradi, xolos. Nazarimda, fikr dalillar yordamida isbotlanishi kerak edi. Yoki shoir Salim Ashurning “Sensiz” deb nomlangan kitobiga shu ruknda “Hijrondek yaqin, visoldek olis” deb nomlangan taqriz (2004, № 42) e’lon qilingan. Taqriz muallifi A. Mengqobilov shoir she’rlarining tahliliga kirishishdan oldin shunday da’voni ilgari suradi: “… yangi kitob shoir ijodiy mahoratining she’rdan she’rga, kitobdan kitobga yuksalayotgani dalilidir”. Nazarimda, fikr dalillar yordamida isbotlanishi kerak edi.

Taqrizda bevosita tahlildan tashqari, ijodkorga munosabat masalasi ham muhim. Taqriz hajmi katta-kichikligidan qat’i nazar, yangi asar haqida o‘quvchida ma’lum taassurot uyg‘otsin, rost so‘zlasin. Ba’zan shunday bo‘ladiki, taqrizchining va’dalari, maqtovlariga ishonib, qo‘lingizga olgan kitob sizni o‘ziga tortmaydi, yolg‘on aldovlarga uchib qolmasligi uchun adabiyot ham, adabiyotshunos ham kitobxonga rost gapirishi kerak.

Adabiyotshunos olim H. Karimov qalamiga mansub taqriz “Ziddiyatlar talqini” deb atalgan (2004, №32). Iste’dodli yozuvchi A. Yo‘ldoshning “Timsohning ko‘z yoshlari” qissalar to‘plamiga yozilgan taqrizni o‘qir ekansiz, adib ijodiga qiziqishingiz oshadi. Taqrizda, garchand, qissalar mazmunini so‘zlab berishga ko‘p o‘rin ajratilgan bo‘lsa-da (aslida, V. Belinskiydan qolgan bu usulni akademik M. Qo‘shjonov o‘zbek tanqidchiligiga olib kirib, tahlilning yaxshi usullaridan biri sifatida ko‘rsatgan edi), kitobxon asar qahramonlarining hayoti, taqdiriga qiziqadi. Ayniqsa, “Otchopar yoxud 13–uy” qissasi tahlilida Nozima obrazi birmuncha aniq tahlil etilgani yaxshi.

Olim taqrizning o‘qishli chiqishi, kitobxonning diqqatini tortish, o‘z fikrlarini isbotlash uchun Belinskiy maqolalariga murojaat qiladiki, o‘quvchi taqriznavis da’volarining asosli ekanligiga shubha qilmaydi. Ammo yozuvchi qissalari adabiyotimizda yaratilayotgan qissalardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi, adibning o‘ziga xos uslubi qay tarzda namoyon bo‘lgan, degan savollar ochiq qoladi. Adib yo‘l qo‘ygan kamchiliklar ham ko‘rsatilsa edi, taqrizning butunligi ta’minlangan bo‘lur edi.

Shuni unutmaslik zarurki, asarga birinchi bo‘lib baho berish, uning yozuvchi ijodi va adabiy jarayondagi o‘rnini ko‘rsatish; baholashdagi tezkorlik va hozirjavoblik; tashviqiy mohiyatga ega ekanligi; kitobxonga yangi asar haqida ma’lumot berib, uning estetik tasavvurini boyitish hamda o‘sha asarni o‘qishga da’vat qilish jihatidan adabiy tanqidda taqriz ayricha o‘rin kasb etadi. Taqrizda asarning qisqa tahlili orqali uning mohiyati hamda badiiyatiga berilgan baho asosiydir.

Olimjon Xoldor Qamchibek Kenjaning ikki jildli “Saylanma”siga yozgan “Ehtiros va e’tirof” deb nomlagan taqrizida (2009, № 3), asosan, ikki jildlikning mundarijasi haqida so‘z yuritilgan. Muallif o‘z fikrlarini isbotlash uchun ko‘chirma keltiradi. Bu – yaxshi usul. Ammo kichik bir taqrizda T. To‘la, O. Yoqubov, M. Shayxzoda va yana qaysidir adabiyotshunos (nomi berilmagan)ning fikrlarini keltirish

o‘quvchini taqriznavisning o‘z so‘zlari yo‘q ekanmi, degan ishtibohga olib bormaydimi?

Keyin taqrizda sanoq ko‘pligi bois tahlilga kam o‘rin berilgan, ammo taqrizchi “Saylanma”ning qusurlarini ham birma-bir ko‘rsatadi. Shunisi qiziqki, adib hikoyalarida “xulosa chiqarish esa ko‘pincha o‘quvchining o‘ziga qoldiriladi” deya, bu xususiyatni ham nuqson sanaydi. Holbuki, modern yo‘nalishga mansub asarlarning ko‘pchiligida olimlar ayni xususiyatni yutuq hisoblaydilar. Shu bois o‘quvchi nazariga havola etiladigan har bir tanqidiy asar, u taqrizmi, maqolami, suhbatmi – qaysi janrda bo‘lishidan qat’i nazar, mas’uliyat bilan yozilmog‘i, kitobxonda shubha emas, ishonch uyg‘otishi lozim. Ayniqsa, taqrizchilikda bu juda muhimdir. Ba’zan shunday bo‘ladiki, asarni o‘qimasdan oldin u haqidagi taqrizni o‘qib qolasiz. Samimiy, ortiqcha maqtovlarsiz, xolislik bilan bitilgan taqriz sizni tezroq o‘sha asarni topib o‘qishga undaydi. Shuning uchun ham adabiy jarayonda, kitobxon qiziqishlarida doimo taqrizning o‘rni muhim bo‘lib kelgan.

Agar e’tibor qaratsak, bosilayotgan taqrizlarning ko‘pchiligi dabdabali va juda yuksak pafosga ega sarlavhalar bilan chiqadi. Ularning ba’zilari shu sarlavhani oqlasa, ba’zilari “usti yaltiroq, ichi qaltiroq” ekanligi sezilib qoladi. Shuning uchun sarlavha tanlanganda ham mas’uliyat va e’tibor juda zarur ekan. Asarga sarlavha topish uning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. M. Qo‘shjonovning “Adashganlar fojiasi” deb nomlangan taqrizi A. Qahhorning “Sarob”iga bag‘ishlangan. Unda ortiqcha dabdaba ham yo‘q, ammo u asarning bor mazmunini o‘zida aks ettira olganligi bilan diqqatni tortadi. O. Sharafiddinovning “She’r ko‘p, ammo shoir-chi?” maqolasi nomidanoq ayovsiz tanqid ruhida ekanligi seziladi. Biz nazardan o‘tkazayotgan taqrizlarning ko‘pchiligida sarlavha o‘quvchiga ko‘p narsa va’da qiladi, ammo ichidagini o‘qisangiz, va’daga vafo yo‘qligiga amin bo‘lasiz.

“Doimiy hamroh” rukni ostida bosilayotgan taqrizlar ko‘pincha janr talabiga javob bermaydi, chunki materiallarning ba’zilari yangi asar haqida qisqacha ma’lumot beradi, ba’zilarida qisqa tahlil ko‘rinadi, ba’zilari faqat xabar berish vazifasini bajaradi, xolos. Masalan, gazetaning (2005) 44-sonida berilgan ma’lumotnoma – taqriz emas. Ularni yangi asarlar (T. Jo‘rayevning “Arvohlar tunda izg‘iydi” romani, A. Hamroning “Xayol ranglari” to‘plamlari) haqidagi xabar-taqriz, deyish mumkin. Chunki xabar-taqrizning bosh maqsadi, ko‘pincha xabar berish va qisqa baholashdan iborat. Uning hajmi juda qisqa bo‘ladi. Demak, bunday taqrizlarning asosiy xususiyati darak berish, tashviq etishda namoyon bo‘ladi.

Gazetaning (2009) 17-sonida yana shu ruknda A. Otaboyning “Otalar hikoyati” M. Xudoyqulovaning “Dadam haqida hikoyalar” kitobiga yozilgan taqrizi haqida ham shu mulohazalarni aytish mumkin. U ham xabar-taqriz hisoblanadi. Shu ruknda (2005, № 33) berilgan ikkita ma’lumotning bittasi muallif nomidan, bittasi muallifsiz berilgan. Bundayam bir xillikka erishish kerakmi?

“Taqriz” ruknida bosilayotgan asarlarda mas’uliyat yanada oshadi, chunki ular janr talablariga javob bera olishi zarur. Masalan, “Taassurot” degan rukndan taqriz janri vazifalarini talab qilishning hojati bo‘lmasa kerak. Chunki nomi bilan asardan olingan taassurotlar kitobxon bilan baham ko‘riladi. Shuning uchun tahririyatlar ham ana shu masalaga diqqat qaratsa, ayni muddao bo‘lur edi.

“So‘qmoqlarda toblangan muhabbat” deb nomlangan taqriz (2005, № 51) R. Bobojonning “Muhabbat mezoni” romaniga bag‘ishlangan ekan. To‘g‘risi, men ham shu taqrizdan keyin shoir R. Bobojonning roman yozganidan xabar topdim. Viloyatlarga hamma kitoblar ham yetib kelavermaydi-da. Taqrizda romanda tasvirlangan davr, asar qahramonlari haqida fikr yuritiladi. Ammo bu qahramonlar qaysi jihatlari bilan xarakter darajasiga ko‘tarilgan, qaysi tomonlari bilan bugungi kun o‘quvchisining ongu tafakkurini o‘zgartirishga xizmat qiladi, degan savollarga javob ololmaymiz. Shu bilan birga, unda asardan olingan his-hayajon, kechinmalar ta’siri sezilmaydi. O‘rtamiyona taqrizda romanning adabiy jarayondagi, romanchilikdagi o‘rni ko‘rsatilmagan.

“Tabiiy tuyg‘ular talqini” deb nomlangan L. Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romaniga bag‘ishlab yozilgan taqrizda (2007, № 3) taqriznavis X. Hamroqulova romandan olgan taassurotlarini nihoyatda samimiyat bilan bayon etgan. Roman qahramonlarining, asarning original jihatlarini ko‘rsatib bergan. Bu asar o‘zbek romanchiligida “yangi bir toza nafas bo‘ldi”, deyiladi taqrizda. Ammo qaysi fazilatlari bilan? “Lolaxon. Ergash, Samad kabi kichik taqdir egalari orqali ularning ulkan ruhiy olamlarini yorita olish, omma o‘rtasidagi shaxs darajasiga chiqqan obrazlarni yaratish yosh adibning ijodiy yutug‘idir” so‘zlari bilan tugallangan taqrizda asarning birorta nuqsoni ko‘rsatilmaydi. Bu mulohazalardan taqrizlarda kamchilik ko‘rsatilishi qat’iy qilib qo‘yilgan ekan-da, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Shunday san’at asarlari bo‘ladiki, ular badiiyligi, tabiiyligi va jozibasi bilan o‘quvchi qalbini tezda rom eta oladi, ulardan chiroq yoqib izlasangiz ham nuqson topolmaysiz. Ammo ular ko‘p emas. Shu bois ana shunday asarlar ko‘payishini istagan taqrizchi so‘zga mas’uliyat bilan qarashi, o‘zi tahlil etayotgan asardan ham shuni talab qilishi zarur bo‘ladi.

Boshqa ruknlarda ham taqrizlar berilmoqda. Masalan, “O‘quvchi fikri” ruknida “Bir asar quvonchi”, degan kichik taqriz (2006, № 29) berilgan, muallifi Axtamqul Karim. U dastlab Luqmon Bo‘rixonning ijodi adabiy gurunglarda bahs-munozaralarga sabab bo‘layotganligi haqida gapirib, adibning “Tahlika” qissasiga munosabat bildiradi. Asarda “yorqin obrazlarni” ko‘rgan, bundan “huzurlangan” taqrizchi qissadagi har bir detal, har bir manzara tasviri o‘z o‘rnida, ma’lum bir maqsadni ko‘zlab qo‘llanilganligini uning yutug‘i sifatida ko‘rsatadi, shu bilan birga, ayrim juz’iy nuqsonlarga ham to‘xtaladi. Ammo negadir uning fikrlarida chalkashlik seziladi. Masalan, qissani “qiziqish bilan o‘qigan” muallif shunday yozadi: “Tahlika” detektiv janrning unsurlariga tayangan bo‘lsa-da, meningcha, u ko‘proq lirik asarlar sirasiga

kiradi”. Balki buni isbot qilish kerakdir yoki taqrizchi asarda lirizm kuchli demoqchimi? Chunki yozuvchi bir jinoyatning sodir etilishi va fosh qilinishi jarayonini tasvirlar ekan, aslida, qalam quvvatini o‘sha jinoyat tevaragidagi qahramonlarning xarakterini, ruhiyatini ochishga qaratadi”. Nazarimizda, bu lirik asarlarga xos xususiyat emas.

“Nigoh” ruknida berilgan taqriz “Yaxshi odamlar sog‘inchi” deb nomlangan (2007, №31). Shoira O‘ktamoy Xoldorova ijodiga bag‘ishlangan taqriz muallifi prof. H. Qudratullayev ijodkorning “Sog‘inch qushlari”, “Oqqush izlari”, “Sabrga suyanib” kitoblari haqida fikr yuritib, she’rlarni mutolaa qilish jarayonida undan olgan taassurotlarini kitobxon bilan o‘rtoqlashadi. Bu taqrizda ham maqtov haddan ziyod. Shoiraning ba’zi she’rlaridan namunalar keltirib tahlil qilgan taqrizchi ularda biror bir kamchilik ko‘rmaydi. Albatta, har bir shoir ijodida muvaffaqiyatli chiqqan she’rlar, quyma misralar, original tashbehlar bo‘lishi, tabiiy. Ko‘pincha, taqrizchilar ayni shunday satrlar yoki parchalarni misol sifatida keltiradilar. Shu bois bunday taqrizlarni o‘qiganda, hamma ijodkorlar zo‘r yozishar ekan-da, degan xulosa kelib chiqadi. Holbuki, bunday to‘plamlarni qo‘lga olib varaqlab ko‘rsangiz, ularda o‘rtamiyona she’rlar tiqilib yotgan bo‘ladi.

“Taqriz ham san’at, shuning uchun uni shunday yozish kerakki, kitobxon taqrizchi bilan muloqotda bo‘lganidan qoniqish his etsin”, deb yozgan edi rus olimi V. Yanovskiy. Darhaqiqat, ham keng jamoatchilikning yangi asarni qanday qabul qilishi, ma’lum jihatdan, uni baholagan, tahlil qilgan taqrizga ham bog‘liq. Bu qonuniyat tusiga kirgan hodisa bo‘lmasa-da, haqqoniy taqriz yangi asar haqida jamoatchilik fikrining shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Negaki, taqrizchi asarning mohiyatini ilmiy-estetik tahlil vositasida yoritish orqali kitobxon dunyoqarashiga ta’sir qilib, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi, estetik didini o‘stirishga ko‘maklashadi. Mana shu nuqtai nazardan qaraganda, matbuotda bosilayotgan hamma taqrizlar ham bu xususiyatlarni o‘zida jamlamaganligi ko‘rinadi. Bu esa adabiy tanqid va adabiyot rivojiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishini unutmasligimiz lozim. Adabiy tanqidning bosh vazifasi esa adabiyotni yuksaklikka ko‘tarishga ko‘maklashishdan iborat.

Annotatsiya matni, tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Annotatsiya – badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko‘tarilgan asosiy masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa xabardir. Annotatsiya o‘zining kamso‘zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi. Batafsil yozilgan annotatsiya quyidagi savollarga javob bera olishi lozim.

Ishda nima haqida so‘z boradi?

Muallif qanday savollarni o‘rtaga qo‘yadi?

Bu savollar qanday yoritib berilgan?

Ishning tuzilishi qanday?
Ishni qanday baholash mumkin?
Yozilgan ish kimlarga mo‘ljallangan? v.h.

Annotatsiya namunasi

Annotatsiya

Maskur qo‘llanma rus tilida so‘zlashuvchi guruhlar uchun tuzilgan bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Qo‘llanma o‘quv yili davomida rejaga binoan olib boriladigan mavzularni o‘z ichiga qamrab olgan. Qo‘llanmada turli manbalardan foydalanilganligini, matnning mazmundor, o‘ziga xos qaytarilmasligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, dasturiy injiniring, iqtisod, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari, aloqa sohasi bilan bevosita bog‘liq matnlar ham o‘rin olgan.

Qo‘llanmada berilgan grammatik mavzular mashqlar bilan mustahkamlanadi. Leksik matnlar turli mavzularda yoritilgan. Qo‘llanmadan o‘rin olgan matnlarning barchasi, bizningcha, har tomonlama yondoshilgan holda tanlangan. Ularni o‘qigan kishi nafaqat yangilik oladi, balki undan o‘ziga tegishli xulosalar chiqarib, mustaqil fikrlay boshlaydi. Ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyati borligini alohida qayd qilish lozim.

ANNOTATSIYA

“Davlat tilida ish yuritish” o‘quv-uslubiy majmuasida 26 ta mavzu qamrab olingan bo‘lib, davlat tiliga oid hamda sohaga oid matnlar keltirib o’tilgan.

O‘quv-uslubiy majmua o‘quv yili davomida olib boriladigan mavzularni o‘z ichiga oladi.

Har bir dars matnlar, grammatik materiallar, grammatik mavzuni mustahkamlash uchun yo‘naltirilgan mashq va topshiriqlar, matnlar bo‘yicha savollar, matndagi so‘zlarning izohi, yangi pedagogik texnologiyalar, nutqiy muloqot namunalari bilan boyitilgan.

1- mashq. Uslubiy qo‘llanmaga va o‘quv-uslubiy majmuasiga berilgan annotatsiya namunasidan foydalanib, biron-bir fan bo‘yicha darslik yoki qo‘llanmaga annotatsiya yozing.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. *Taqrizlarning o‘ziga xosligi haqida ma’lumot bering.*
2. *Adabiyotshunos olimlarning asarlariga yozilgan taqrizlarning tahlili qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?*

3. O‘zbek adabiyotida taqrizning tutgan o‘rnini izohlang.
4. Annotatsiya so’zining ma’nosini izohlab bering.
5. Annotatsiya yozishda nimalarga ahamiyat berish kerak?
6. Annotatsiyaga namunalar yozing.

8- Mavzu: REFERAT MATNI

Reja:

1. Referat haqida umumiy ma’lumot. Referatning tarkibiy qismlari.

2. Referatning o’ziga xosligi. Mavzuning tanlanishi, tayyorgarlik ishlari, referat rejasini tuzish.

3. Referatni yozish, adabiyotlarni rasmiylashtirish.
4. Referatning turlari.
5. Referatning baholanishi.

Tayanch so‘z va iboralar: *Referat, tarkibiy qismlari, kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, axbortli, indekativ, matnli, monologik, tahliliy.*

Referat haqida umumiy ma’lumot

Referat - ilmiy uslubga xos bo‘lgan matn. U oldindan tayyor matn asosida yaratiladi. Referat yozishdan maqsad – manba sifatida o‘rganilayotgan matnning mazmunini qisqacha bayon qilishdir. **Referat –** asosiy matn yoki bir necha manbalarni talqin qilish shakllaridan biri. Shuning uchun referat, konspektdan farqli ravishda, yangi, muallifning matni hisoblanadi. Bunday holdagi yangilik yangicha bayonni, materialning bir tizimga solinishi, har xil nuqtai nazarlarni qiyoslashda muallifning alohida pozitsiyasini nazarda tutadi.

Referatlash qandaydir masalaning bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinshini, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi.

Referat ma’lum bir tuzilishga ega:

- *Kirish;*
- *Asosiy qism;*
- *Xulosa*

Referatda quyidagi savollarga javob beriladi:

Nima haqda? Kimga va nima qiziqarli? Nima uchun bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi?

Referat oxirida o‘quvchi nuqtai nazaridan umumiy xulosa beriladi va quyidagi konstruksiyalar qo‘llanadi. *O‘quvchi qiziqish bilan tanishib chiqadi, o‘rganganlarim men uchun foydali bo‘ldi, o‘zi uchun topadi, men bu fikrga qo‘shila olmayman va b.*

Referat so‘zi lotincha “referre” negizidan olingan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda “bildirish, xabar berish” degan ma’nolarni anglatadi. Referat qismlarining tuzilishi va uning ustida ishlash bosqichlari:

Odatiy tartibga ko‘ra referat ustida ishlashning boshlang‘ich qismini tanlangan mavzuning izohi ochib berishi lozim. Unda mavzuning dolzarbligi, ushbu mavzu yuzasidan hozirgacha fanga ma’lum bo‘lgan va o‘z tasdiqini topgan faktlar, natijalar; olimlarning uni o‘rganish ustida olib borgan ishlari; adabiy manbalardan keltirilgan misollar, foydalanilgan materiallar; o‘rganilayotgan mavzuning amaliy yoki ilmiy tasdiqini topgan masalalari o‘z aksini topadi.

Referat quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

1. Titul varag‘i;
2. Reja;
3. Kirish qismi;
4. Asosiy qism;
5. Xulosa;
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Referatning o‘ziga xosligi:

1. Keng miqyosli dalillar, qiyoslashlar, mushohadalar, baholarga ega bo’lmaydi;
2. Matnda qanday yangi, muhim jihat bor, degan savolga javob beradi.
3. Referat diqqat-e’tiborni yangi ma’lumotlarga qaratadi va boshlang‘ich matnga murojaat etishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

Referatlarning turi va ularning xususiyatlari.

Nazariy ma’lumotlarga asoslanib quyidagi savollarga javob bering.

1. *Referat qanday uslubga xos matn? Nima uchun?*
2. *Referat qanday qismlardan tashkil topadi?*
3. *Referatda qanday savollarga javob beriladi?*
4. *Qanday konstruksiyalar referat uchun xos?*
5. *“Referat” so‘zining ma’nosi nima?*

Referatni yozish boʻyicha yoʻriqnoma:

1.Mavzuning tanlanishi: Kafedra taklif qiladigan referatlar mavzulari namunaviy boʻladi. Sizning oʻzingizning qiziqishlaringiz va mayllaringizga mos keladigan mavzuni tanlashga mustaqil yondashishingiz maqsadga muvofiq. Siz oʻz qiziqishlaringiz doirasi asosida tanlangan muammoga amal qilib va uni asoslash bilan kafedra tavsiya qilgan mavzular roʻyxatiga kirmagan referat mavzusini taklif qilishingiz ham mumkin. Bunday vaziyatda taklif qilayotgan referat mavzusingizni ilmiy rahbaringiz bilan albatta kelishib olishingiz kerak boʻladi.

2.Tayyorgarlik ishlari: Asosiy manbalarni oʻrganib, referat mavzusini tanlagach, quyidagilar inobatga olinadi:

a). Tanlangan mavzuga tegishli masalalar doirasi bilan tanishib chiqish;

b). Ma'ruza materiallarini ko'zdan kechirish;

c). Fan bo'yicha oʻquv dasturiga ko'ra tegishli mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlarni yana bir bor tahlil qilish;

d). Universitet axborot-kutubxona majmuida mavjud boʻlgan kataloglardan foydalanib, referat mavzusi bo'yicha adabiyotlar manbalari doirasini kengaytirish.

3. Zarur materialning konspekt qilinishi: Konspekt qilish konspektlashning bir turi: rejali, matnli, tematik, xronologik, tahliliy yoki erkin turiga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Muammoni tadqiq qilish mantiqini ishlab chiqish, referat rejasini tuzish:

Referatning rejasi tanlangan mavzuda koʻrilishi lozim boʻlgan masalalar doirasi va referatning asosiy mazmunini belgilaydi. Har bir bandi qat'iy tanlangan material bilan ta'minlangan puxta oʻylangan reja referatning muvaffaqiyatli yozilishining gʻoyat muhim shartidir. Referatning asosiy qismi oʻzining loʻnda va aniq nomiga ega masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) boʻlinishi zarur.

5. Toʻplangan materialning bir tizimga solinishi va referatning yozilishi:

Kirishda tanlangan mavzuning nazariy va amaliy jihatlardan dolzarbligi asoslanadi, referatning maqsad va vazifalari ifodalanadi. Titul varagʻi – ishning mavzusi, muallif va ilmiy rahbarning ism-sharifi hamda oʻquv muassasasining toʻliq nomini oʻzida aks ettirishi shart. Agar referat monografik boʻlsa (bir manba yoki muallif referat qilinayotgan boʻlsa), unda kirishda quyidagilar koʻrsatiladi:

1) *muallif haqidagi qisqacha ma'lumotlar (ilmiy darajasi, uning ixtisosligi, boshqa ishlari);*
2) *manba mavzusining qisqacha bayoni;*
3) *ishning maqsadi;*
4) *ishning ruknlari;*
5) *muallifning ustuvor yoʻnalishi va boshqalar.*

Asosiy qismda barcha muhim qoidalar aks ettirilishi kerak. Referat asosiy qismining matni to‘plangan materialning tegishlicha taqsimlanishi bilan masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) bo‘linishi zarur.

6. Adabiyotlar ro‘yxatining rasmiylashtirilishini tekshirish: Referatda foydalanilgan manbalarning nomi aniq ko‘rsatilishi lozim. 1) O‘zR qonunlari. 2) O‘zR Prezidenti farmonlari. 3) O‘zR Hukumati qarorlari. 4) Me’yoriy hujjatlar, yo‘riqnomalar. 5) Kitoblar, davriy nashrlarda e’lon qilingan maqolalar. 7) Internetdan olingan axborot manbalari. Manbalarning bibliografik bayonida quyidagilar ko‘rsatiladi: muallifning familiyasi va ismi-sharifi, kitob nomi, nashr qilingan joyi, nashriyot nomi va nashr yili. Agar maqola jurnalda (gazetada) bosilgan bo‘lsa, unda jurnal (gazeta) nomi, chiqqan yili, jurnal (gazeta) sahifasi raqami.

7. Matnning tahrirli tuzatilishi. Matnning savodxonlik va uslubiyat jihatdan tekshirilishi: Referat savodli tarzda yozilishi va toza ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Umumiy qabul qilingan so‘zlardan boshqa so‘zlarning qisqartirilishiga, shuningdek xatolar, noaniqliklar, uslubiy nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

8.Referatning rasmiylashtirilishi: Fan o‘qituvchisiga taqdim etiladigan referat kompyuterda 12-shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A 4 formatli qog‘ozda va matn uning faqat bir tomonini egallaydi, qog‘ozning chap tomonidan 2,5 sm, o‘ng tomonidan 1,5 sm, yuqorisi va pastidan kamida 2 smlik hoshiyalar bilan terilishi kerak. Matn sahifalari albatta raqamlanishi kerak. Referat hajmi 16-20 sahifadan oshmasligi kerak.

Referatlar turlari

.

Bayonning to‘liqligi bo‘yicha	Axborotli (referat – konspektlar)
	Indikativ (referat – rezyumelar)

Referatlanadigan manbalar soni bo‘yicha	Monografik
	Tahliliy

Referatning tuzilishi

1. Bibliografik bayon	2. F.I.Oi. Asar nomi. Nashr qilingan joyi. Nashriyot. Yil. Sahifalar soni.
Referat matni	- Mavzu, muammo; referat qilinadigan ishning predmeti, maqsadlari va tuzilishi. - Qisqacha mazmuni. - Aniq natijalari. - Muallif xulosalari. - Ish natijalari qo‘llaniladigan soha.

Referatning baholanishi

(Baholashning namunaviy ko‘rsatkichlari va mezonlari)

Baholash ko‘rsatkichlari	Baholash mezonlari
1. Referat qilingan matnning yangiligi Maks.- 20 ball	- muammo va mavzuning dolzarbligi; - muammoning qo‘yilishi, tahlil uchun tanlangan muammoning yangi jihatini ifodalashdagi yangilik va mustaqillik; - muallif pozisiyasining mavjudligi, fikrlarning mustaqilligi.
2. Muammo mohiyatini ochib berish darajasi Maks.- 30 ball	- rejaning referat mavzuiga muvofiqligi; - mazmunning referat mavzui va rejasiga mosligi; - muammoning asosiy tushunchalarini ochib berishning to‘liqligi va chuqurligi; - material bilan ishlash usullari va uslublarining asoslanganligi; - adabiyotlar bilan ishlash, materialni bir tizimga solish va tarkiblashtirish mahorati; - ko‘rib chiqilayotgan masala bo‘yicha har xil nuqtai nazarlarni umumlashtirish, qiyoslash, asosiy qoidalar va xulosalarni dalillash mahorati.

3. Manbalarni tanlashning asosliligi Maks.- 20 ball	- muammoga doir adabiy manbalardan foydalanish doirasi, to‘liqligi; - muammo bo’yicha eng yangi asarlardan foydalanish (jurnal maqolalari, ilmiy asarlar to‘plamlari materiallari va hokazo).
4. Rasmiylashtirish talablariga rioya qilinishi Maks. - 15 ball	- foydalanilgan adabiyotlarga qaydlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi; - bayonning savodliligi va madaniyati; - muammo atamalari va tushunchalar apparatini egallaganlik; - referat hajmiga talablarga rioya qilinishi; - rasmiylashtirish madaniyati: xatboshilarning ajratilishi.
5. Savodlilik Maks.- 15 ball	- orfografik va sintaktik xatolar, uslubiy nuqsonlarning yo‘qligi; - xatolar, umumiy qabul qilingan so‘zlardan tashqari so‘zlarni qisqartirishlarning yo‘qligi; - adabiy uslubi.

Natijada referat quyidagi tarzda bilimlarni baholashning 100 ballik va 5 ballik tizimida baholanadi:

• 86 – 100 ball – «a’lo»;
• 70 – 75 ball – «yaxshi»;
• 51 – 69 ball – «qoniqarli”;
• 51 balldan kam – «qoniqarsiz».

Ballar dasturiy materialni bilishni joriy baholash jarayonida hisobga olinadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Fan rivojiga katta hissa qo‘shgan taniqli o‘zbek olimlari haqida referat tayyorlang.

2. Referatning o’ziga xosligi nimalarda namoyon bo’ladi?

3. Referat yozishda nimalarga ahamiyat berish kerak?

9- MAVZU: REKLAMA – IDORAVIY MULOQOT JANRI

Reja:

1. *Reklama haqida umumiy ma'lumot.*
2. *Reklamaning o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Reklama shiorlaridagi bog'liqlik.*
4. *Reklama matnlarining tuzilishi.*

Tayanch so'z va iboralar: *Reklama, ko'rgazma reklamalari, matbuotdagi reklama, bosma reklamalar, plakat-grafika reklamalari, kino reklamalari, radio-reklamalari, yoritish reklamalari, bog'langan shior, uyg'unlashgan shior, erkin shior.*

Reklama odatda juda qimmat turadi. Shuning uchun ham firma uning asosiy vazifasi nimadan iborat ekanligini unutmagan holda qilinajak reklama haqidagi o'zining chuqur o'ylangan marketing yechimini qabul qilishi kerak. Mablag' haqida masala ravshanlashib borganda, reklama bo'yicha shug'ullanuvchilarga qanchalik katta mas'uliyat tushishini ko'ramiz, ya'ni reklama bo'yicha mutaxassis qobiliyatli bo'lmasa va mavjud imkoniyatlardan foydalanib ish yuritmasa, avvalo o'z ishi, muassasasining obro'sini ham tushirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun reklama bo'yicha mutaxassis marketing muhitini va tashkilotdagi marketing strukturasiga tayangan holda quyidagi qoidalarga rioya qilishi lozim:

reklamadagi asosiy element – tovarlarni sifati va korxonani bozordagi mavqeyi;

tovarlar reklamasida barchani jalb etadigan oddiy, gohida xaridorlarning tovarlarni ko'rish uchun safarbar qiladigan usullar bo'lishi;

tovar reklamasi qimmat bo'lganligi uchun shunday reklama tayyorlash kerakki, u arzon bo'lsin;

reklamada tovarni turli ranglarda ko'rsatish va bu ranglar xaridorlarni o'ziga jalb eta olishi zarur;

tovarni reklamasida mahalliy an'analarni hisobga olish va tovarni qaysi regionlarda va qaysi yoshdagi xaridorlarga mo'ljallangan bo'lishi juda muhimdir.

Reklama turlari va qo'llanilish usullari. Reklama turlari, ularning umumiy tavsifi va qo'llanilish usullariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

– ko'rgazma reklamalari;

– matbuotdagi reklama;

– bosma reklamalar;

– plakat-grafika reklamalari;

– kino reklamalari;

– radio-reklamalari;

– yoritish reklamalari.

Ko‘rgazma reklamalari – reklama turlari ichida eng keng tarqalgan hisoblanadi. Ko‘rgazma reklamasining asosiy vazifasi, savdoda mavjud bo‘lgan, sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar assortimentini iste’molchilarga tanishtirish, iste’molchilarga hali yaxshi tanish bo‘lmagan yoki ma’lum bo‘lmagan tovarlarni keng targ‘ibot qilish, iste’molchilarga yaqinlashib kelayotgan ma’lum bir mavsumga mos tovarlarni o‘z vaqtida sotib olish zarurligini eslatib turishdan iboratdir.

Tijorat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlarga ko‘rgazma reklamalarini quyidagi talablar asosida joylashtirishlarini talab qiladi:

1. Ko‘rgazmalar ko‘cha yuzida yaxshi ko‘zga tashlanadigan, tushunarli ravishda joylashtirilgan bo‘lishi kerak.

2. Ko‘rgazmada faqat sotuvda mavjud va sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar bo‘lishi, vaqtincha bo‘lmagan yoki sotib bo‘lingan tovarlar bo‘lmasligi kerak.

3. Ko‘rgazmada namoyish qilinayotgan tovarlar namunasi aniq va to‘liq qilib yozilgan narx yorliqlari bo‘lishi zarur.

4. Ko‘rgazmalarni hech bo‘lmaganda oyida ikki marta almashtirib turish kerak.

Ko‘rgazma maydonlarining hajmi, ko‘rgazma uchun tavsiya etilayotgan tovarlarning xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha bo‘ladi: – nooziq-ovqat tovarlari joylashtiriladigan ko‘rgazma maydonlarining hajmi 1 metrdan 2 metrgacha tavsiya etiladi;

– yirik savdo tarmoqlari, supermarket, univermag va savdo markazlarida 3 metr va undan ortiq;

– kichik hajmdagi tovarlar, suvenirlar, atir-upa, zargarlik buyumlari bilan savdo qiluvchilarga 0.80 metrdan 1 metrgacha;

– oyna ko‘rgazma maydonlarining balandligi binoning asosiy bo‘yiga hisoblaganda 0.80 metrdan 1 metrgacha bo‘lishi tavsiya etiladi.

Tovarlarni namoyish qilish uchun qo‘llaniladigan texnik vositalarning turlariga quyidagilar bog‘liq bo‘ladi:

• harakatlanuvchi ko‘rgazmalar, qo‘yilgan jihozlarda o‘rnatilgan tovarlarning asosiy qismi doimiy ravishda aylanib, harakatlanib turadi;

• qo‘zg‘almaydigan ko‘rgazmalar, bunda tovarlarni ko‘rsatish, namoyish qilish uchun qo‘llaniladigan maxsus moslama va jihozlar ishlatiladi;

• ovoz tarqatuvchi ko‘rgazmalarga turli qurilma va moslamalar tanlab olinadi, ular mavzular orqali ifodalab berishga qaratiladi.

Tovarlarni ko‘rgazma reklama qilishda qo‘llanilish joyiga, bezatish xususiyatlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Tor ixtisoslashgan ko‘rgazmalar.

2. Ixtisoslashgan ko‘rgazmalar.

3. Umumlashtirilgan ko‘rgazmalar.

4. Aralash ko‘rgazmalar.

Matbuotdagi reklama. Matbuotdagi reklama mamlakatimiz hududida nashrda chop etilgan turli xil reklama materiallarini o‘z ichiga oladi. Ularni asosan ikki guruhga ajratish mumkin:

Reklama e’lonlari – bu mavjud nashrga joylashtirilgan pullik reklama bildirishidir. Reklama e’lonlari reklama beruvchining tijorat taklifining maqsadini va afzalligini qisqa shaklda ifoda etadi. Reklama e’lonining asosiy mavzusi kichik harflarda yozilib, reklama murojaati maqsadini to‘liq ifodalaydi, xaridor uchun mahsulotning foydali tomonlarini va afzalliklarini ta’kidlaydi. E’lonning oxirida xaridorlar murojaat qilishi uchun manzili, telefon, faks yoki boshqa reklama vizitlari keltiriladi.

Har qanday reklama axborot matnini tinglovchiga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vosita sanaladi. Demak, reklamaning birlamchi va asosiy elementi bu tildir. Reklamalar matni (peshlavha, shior, afishalar) matnlariga nisbatan o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Quyida ana shunday matnlar haqida so‘z yuritamiz.

Ma’lumki, har qanday matndan anglashilayotgan fikrlar undagi til birliklari orqali ifodalanadi. Matnning o‘ziga xos xususiyati undagi til birliklarining o‘zaro bog‘liqligi, mosligi va yaxlitligidir. Ko‘chma reklama matnlari tuzilishiga ko‘ra alohida ahamiyatga ega. Ularda aks etuvchi yozuvlar, rasmlar, shartli belgilar, simvollar reklama matni semantikasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tilning ifoda vositalari reklama qilinayotgan mahsulotning muhim qirralarini ochishda zaruriy vosita hisoblanadi. Masalan, vizual (ko‘ruv) reklama matnlarida lingvistik vosita sifatida asosan yuqori emotsional -ekspressivlikka ega bo‘lgan sifat

turkumiga ega bo‘lgan so‘zlar qo‘llaniladi. Chunki reklama qilinayotgan xizmatlar, tovarlarning o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklarini alohida ta’kidlab, bo‘rttirib ko‘rsatish, asosan, sifat so‘z turkumi orqaligina amalga oshiriladi. Masalan, *xushbo’y, nozik, shaffof, sof, asl, toza, haqiqiy, tabiiy, chin, arzon, ommabop, hammabop, yoqimli, ko’rkam, yorqin, porloq, xushbichim, orasta, zebo* kabi.

Shuningdek, reklama matnlarida buyruq tarzidagi da’vat fe’llari ham ko‘p qo‘llanishi mumkin. Masalan, *his eting, tashrif buyuring, marhamat qiling, tanishib chiqing, tanlang, kuting, ishtirok eting, ega bo’ling, shoshiling, lazzatlaning, quvoning* va hokazo. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, vizual reklamalarturiga kiruvchi ko‘chma reklama tilining muhim va jonli bo‘lishi hamda ta’sirchan shaklda o‘quvchiga yetkazilishi uchun uning matni mazmunli, siqiq shaklda va tasviriy san’at bilan omuxta bo‘lishi, ya’ni reklamalarda til birliklari va tasviriy san’at uyg‘unligi ta’minlanishi kerak. Vizual reklamalarni til birliklarining qo‘llanish yoki qo‘llanmasligiga ko‘ra shartli ravishda lingvistik matnli reklamalar lingvistik matnlarsiz reklamalarga qaraganda ko‘proq axborot tashiydi. Lingvistik matnli reklamalarda ko‘zlangan maqsadga erishish reklama mazmunini ifodalovchi asosiy so‘zlarning qisqaligiga, yozilish shakli, rangi va boshqa xususiyatlariga ham bog‘liq.

Tuzilishiga ko‘ra reklama shiorlarini 3 guruhga ajratish mumkin:

1. **Bog‘langan shior.** Bunda tovar nomi ishtirok etadi: Har doim Coca-Cola!
2. **Uyg‘unlashgan shior.** Unda shior tovar nomi bilan ritmik va fonetik uyg’unlikda bo‘ladi: Alyumag – oshqozonga ko‘mak; Ermak – bu foydali, mazali va toza yemak; Muza bilan siz, betakror pazandasiz.
3. **Erkin shior.** Bunda tovar markasi alohida qo‘llanadi: Nescafe. Hammasi yaxshilikka. Nestle. Musaffo hayot davri keldi! Shaffof. Birinchi buloq suvi!

Reklama matnlari quyidagicha bo‘lishi lozim:

- qisqa so‘z, qisqa gap, qisqa abzatslardan foydalanib mazmunli matn tuzish;
- reklama qilinayotgan taklifni bevosita sarlavhaning o‘zida isbotlash;
- “qulay” so‘ziga asosiy e’tiborni qaratish;
- sarlavha osti qismida matnni takroran eslatish;
- reklama matnini mahsulot yoki xizmatni harakatda tasvirlovchi rasmlar bilan berish;
- taklifning qat’iyligi to‘g‘risidagi iborani kiritish, so‘z yoki iborani katta harflarda yozish.

Reklama shunday jarayonki, unga har kuni, har yerda har bir kishi duch keladi. Reklama ommaviy kommunikatsiyaning barcha sohalariga kirib bormoqda.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun vazifalar :

1.Internet materiallaridan foydalanib, sohangizga oid reklama matnini yarating va ularga namunalar yozish .

2.Mavzuga doir multimediali taqdimot tayyorlang.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1.Reklama haqida ma’lumot bering.

2. Reklamaning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.

3. Reklama shiorlaridagi bog‘liqlikni tushuntiring.

4. Reklama matnlarini tuzishda nimalarga ahamiyat berish kerak?

10-MAVZU: TAQDIMOT NUTQI – JAMOATCHILIK NUTQINING TURI SIFATIDA. IDORAVIY TAQDIMOT (TAQDIMOTNI TASHKILLASHTIRISH)

Reja:

1. *Taqdimot haqida umumiy ma’lumot.*
2. *Taqdimotda vazifalar va uning tarkibiy qismlari.*
3. *Taqdimotni tuzish jarayoni.*
4. *Taqdimot jarayonida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish.*

Tayanch so‘z va iboralar: *Taqdimot, taqdimotning vazifasi, o‘tkazish joyi, tashkilotchi, tadbir, mavjud vaqt, boshqa notiqlar, tinglovchilar, multimediali taqdimot, imidj tushunchasi reyting, obro‘, mashhurlik, joziba, maftunkorlik, e’tibor, nufuz.*

Taqdimot jiddiy mavzu. Uning maqsadi tinglovchilarga ma’lumot berish, tushuntirish va undash yoki o`z nuqtai nazarini taqdim etishdir. Unda mahsulot tanishtirilishi, jarayon tushuntirilishi yoki tajriba bayon etilishi mumkin. U kichik, bilimli tinglovchilarga konferensiya, seminar yoki biznes yig‘ilishida yetkazib berilishi mumkin va tinglovchilar savollari bilan davom ettiriladi. Taqdimot malakasi notiqlik san’atida oldindan abzatslarning kirish qismini tayyorlash, format aspektda amaliyot bilan ishlov berilishi va rivojlantirilishi mumkin.

Taqdimotda 4 ta vazifa bajarilishi lozim:

1. Taqdimot qilinishi kerak bo‘lgan muhit haqida bilish yoki buni biz taqdimotning turli elementlari deyishimiz mumkin.

2. Matnni va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlash.

3. O‘zining ko‘rinishi va xatti-harakatlariga e’tibor qaratish.

4. Taqdimot qilishni mashq qilish.

Taqdimotning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. O‘tkazilish joyi: agarda siz joyni bilsangiz, siz o‘zingizni qulayroq his qilasiz, lekin xonani va barcha talab etilgan jihozlarni taqdimot boshlanishidan bir necha daqiqa oldin tekshirishni unutmang. Agarda tashqarida bo‘lsa, siz xona, o`rindiqlar joylashuvi, notiqning o‘rni bilan tanishishga harakat qiling, ko`rgazmali qurollarni diqqat bilan tekshiring. Uning joylashuvi va yoritilishiga e’tibor qarating.

2. **Tashkilotchi**: tashkilotchi tashkilot nomi va undagi muhim shaxslar haqida imkoni boricha ko`p bilishga harakat qiling.

3.**Tadbir**: qanday tadbirga taqdimot qilish uchun ketayotganingizni bilishingiz shart, biznes uchrashuvimi, konferensiyami yoki seminarmi?

4. Mavjud vaqt: sizga mo`ljallangan vaqtni oldindan tekshiring. Abzatslarni tayyorlash berilgan vaqtga bog`liq bo`ladi.

5. Boshqa notiqlar: yana boshqa notiqlarni bilib olish. Raqib tashkilotdan kimlardir bo`ladimi? Ularning tashkilotdagi lavozimi qanday? Raqiblar bo`lishi yoki bo`lmasligidan qat'i nazar ular haqida har qanday izoh berishda ehtiyotkor bo`ling.

6.**Tinglovchilar**: taqdimot tinglovchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos bo'lishi shart. Nutqning mazmuni va ohangi tinglovchilarning tabiatiga bog`liq bo`ladi. Taqdimotda foydalangan so'zlaringizga e'tibor qarating, mos bo'lmagan hech narsaga murojaat qilmang.

Taqdimotni tuzish jarayoni quyidagi harakatlardan iborat:

1.Taqdimotni umumiy bezash usulini tanlash;

2.Slaydlarning mazmuniy o'lchamlarini tanlash;

3.Yangi slaydni va uning tarkibiy qismlarini qo'shish;

4.Slayd hajmi yo'lchamlarini tanlash;

5.Slaydlarga bezashda zarur bo'lgan o'zgarishlar kiritish;

6.Slaydlarni ko'rsatishda tovushli animatsiya jihatlarini yaratish.

Taqdmotni tayyorlash jarayonida Microsoft Power Point da ko'rsatilayotgan ma'lumotlar taqdim etilayotgan ishning mazmuni va mohiyatini, natijalari va xulosalarini, takliflarini aks ettirishi lozim. Taqdimot quyidagi tavsiflarga ega bo'lishi kerak:

A) slaydlar soni (7 – 10 ta);

V) slaydlarning mazmuniy o'lchamlari;

S) birinchi slayd ishning mavzusi, obyekti, bajaruvchi to'g'risida to'liq ma'lumot berishi zarur;

D) oxirgi slayd ma'lumotlar manbalari tavsifiga bag'ishlangan bo'lishi kerak;

Imidj tushunchasi reyting, obro`, mashhurlik, joziba, maftunkorlik, e'tibor, nufuz va boshqa tushunchalar bilan hamohangdir. Imidj tashqi ko'rinish, kiyinish madaniyati, urf-odatlar, faoliyat va sa'y-harakatlar, inson axloqi va o`zini tutishida, xarakterida, do`stlari va o`zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Taqdimot jarayonida ko`rgazmali vositalardan foydalanish

Multimediali taqdimot - bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktor jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o'lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. Taqdimotning ma'lumot

taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaolligidir, ya’ni belgilangan shaklda o`zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. Bundan tashqari, taqdimot sizning saytingiz kaliti ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni Internetga chiqish imkoniyati mavjud bo‘lgan paytda sichqonchani bir martagina bosish orqali taqdimotni ko‘rib kompaniya saytidan eng yangi ma’lumotni olish mumkin.

Bu maqsadda diaproektorlar, kodoskoplar, grafik tasvirlarni ekranda namoyish etuvchi slaydlardan foydalaniladi. Kompyuter va multimediali proyektorning paydo bo‘lishi ma`ruzachi nutqini ovoz, video va animatsiya jo‘rligida sifatli tashkil etishning barcha zaruriy jihatlarini o‘zida mujassam qilgan ko‘rgazmali materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkon berdi. Ma`lumki, inson ma’lumotning ko‘p qismini ko‘rish (-80%) va eshitish (-15%) organlari orqali qabul qiladi.

So‘nggi o‘n yillik dunyoda kompyuter revolyutsiyasi davri bo‘ldi. Kompyuterlar asosli ravishda hayotimizga kirib keldi. Insoniyat faoliyatining aksariyat jabhalarini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Faoliyatning eng tez o`zgaruvchan dinamik turi bo‘lgan biznes ham ushbu jarayondan chetda qolmadi. Bu holatda kompyuter bilan muloqotni osonlashtirish, uning e’tiborini tortish, qiziqtirish uchun ma’lumotingizni boshqalarga qanday qilib eng qulay va samarali tarzda yetkazish mumkinligi to‘g‘risida savol tug‘iladi.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun vazifalar :

1.Taqdimot uchun jonli rasmlar oling va uni slaydlarda joylashtiring .

2.O‘zingiz qiziqqan sohaga doir multimediali taqdimot tayyorlang.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar :

1.Taqdimot haqida ma’lumot bering.

2. Taqdimot va uning turlarini izohlab bering.

3. Taqdimot jarayonida qanday ko‘rgazmali qurollardan foydalanish kerak?

4. Multimediali taqdimotni tushuntiring.

“Akademik yozuv” fanidan nazorat savollari

1. Yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qat’iy me’yorlarga ega bo‘lgan nutq ko‘rinishini to‘g‘ri toping.
   A)Badiiy nutq
   B) Adabiy nutq
   C) Ilmiy nutq
   D) Publitsistik nutq
2. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy majlis yig‘inlarida, turli xil anjumanlarda qo‘llaniladigan nutq uslubi qanday nomlanadi?
   A) Ilmiy uslub
   B) Badiiy uslub
   C) Rasmiy-idoraviy uslub
   D) Publitsistik uslub
3. Daliliy munosabatlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o‘ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil bayon qiluvchi uslub qanday uslub hisoblanadi?
   A) Ilmiy uslub
   B) Rasmiy-idoraviy uslub
   C) Badiiy uslub
   D) So‘zlashuv uslubi
4. *Ultra tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish a’zosi bo‘lgan quloq deb hisoblangan. Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.* Yuqorida keltirilgan gap qaysi uslubga tegishli?
   A) Rasmiy-idoraviy uslub
   B) Ilmiy uslub
   C) Publitsistik uslub
   D) Badiiy uslub
5. Obyektlarga vizual tasvir berishning nechta bosh kategoriyasi mavjud?
   A) 3ta
   B) 4ta
   C) 5ta
   D) 6ta
6. Kishilar o‘rtasidagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayoni bu ..... dir.
   A) Suhbat
   B) Dialog
   C) Kommunikatsiya

D) Muloqot

7. “Kommunikatsiya” so‘zi qanday ma’noni bildiradi?
   A) xabar bermoq
   B) qatnashmoq
   C) bo‘lishmoq, umumlashtirmoq
   D) barchasi to‘g‘ri
8. Nima munosabat yaratishga va muhabbatni shakllantirishga yordam beradi, o‘zaro tushunishni rag‘batlantiradi?
   A) kommunikativ aloqa
   B) individual suhbat
   C) muloqot jarayoni
   D) kommunikativ muloqot
9. «Kommunikatsiya ma’no almashinuvining natijasi bo‘luvchi har qanday xatti-harakatdir», deb kimlar ta’rif beradilar?
   A) Germaniya Menejment Assotsiatsiyasi
   B) Fransiya Menejment Assotsiatsiyasi
   C) Amerika Menejment Assotsiatsiyasi
   D) to‘g‘ri javob yo‘q
10. Qisqa xabarlar xizmati (SMS) ning afzalliklari nimadan iborat?
   A) Xabar har qaysi payt jo‘natilishi mumkin
   B) Bu shoshilinch paytda foydalidir
   C) Bu harajat bilan birgalikda vaqtni ham tejaydi
   D) barchasi to‘g‘ri
11. Foydalanish uchun qulay, oson erishib bo‘ladigan, dunyodagi har qanday telefon liniyasidan qatnashsa bo‘ladigan, konferens qo‘ng‘iroqlarini tuzish uchun faqatgina bir necha daqiqa ketadigan, harajatlar, energiya va vaqt tejaladigan aloqa turini toping.
   A) Videokonferensiya
   B) Telekonferensiya
   C) Faol mobil telefon qurilmasi
   D) barchasi to‘g‘ri
12. Qaysi aloqa vositasi to‘liq interaktiv va deyarli yuzma-yuz yig‘ilishlarga o‘xshash bo'ladi. Bu standart telefon liniyasi orqali muloqot qilinishi mumkin. Murakkabroq tizim va jihozlar bilan ikki joydagi insonlarning barchalari bir-birlarini xuddi haqiqiy yig‘ilishdagidek ko‘rishlari ehtimolini yaratadi?
   A) Videokonferensiya
   B) Telekonferensiya
   C) Faol mobil telefon qurilmasi
   D) barchasi to‘g‘ri

13. Muloqot texnikasining zaruriy sharti nimadan iborat?

A) Bu behad izlanish va o‘z ustida ishlash, qilgan ishlaridan xursand bo‘lish, boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilish.

B) Bu qandaydir qo‘l bilan tutib bo‘lmaydigan, balki fahm-farosat bilan amalga oshiriladigan xatti-harakatdir.

C) Bu o‘qituvchining o‘z e’tibori va o‘quvchilarning e’tiborlarini boshqara olish demakdir.

D) to‘g‘ri javob yo‘q

14. Muloqot texnikasida uchraydigan kamchiliklar nechta?

A) 4 ta

B) 7 ta

C) 3 ta

D) 8 ta

15. Muloqot madaniyati, mimik pantomima va hissiy holat bu……?

A) Muloqot texnikasida uchraydigan kamchiliklar

B) Muloqot texnikasining tarkibiy qismlari

C) Muloqot texnikasiga qo‘yiladigan talablar

D) to‘g‘ri javob yo‘q

16. ……. - savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta’sirchan qilib bayon etish, o‘z fikr va his-tuyg‘ularini so'zda aniq ifodalash. Nuqtalar o‘rniga mos javobni toping.

A) Muloqot madaniyati

B) Mimik pantomima

C) Hissiy holat

D) to‘g‘ri javob yo‘q

17. ……- aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki iliq tabassum. Nuqtalar o‘rniga mos javobni toping.

A) Muloqot madaniyati

B) Mimik pantomima

C) Hissiy holat

D) to‘g‘ri javob yo‘q

18. Muloqot texnikasiga qo‘yiladigan talablar nechta?

A) 4 ta

B) 5 ta

C) 6 ta

D) 7 ta

19. «O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari» kitobining muallifini toping?

A) Vikram Bisen Priya

B) J.Brofi

C) T.Gudd

D) B va C

20. Notiqlikning eng yuksak choʻqqisini zabt etgan olim kim?

A) Demosfen

B) Vikram Bisen Priya

C) T.Gudd

D) J.Brofi

21. Soʻzlovchi va qabul qiluvchi ogʻzaki muloqot vositasisiz amalga oshganda juda asqotadigan hamda barcha tashkilotlarda ijrochilar yozma xabarlar orqali boʻlimlararo va bo`limlar ichida samarali aloqani yuritishlari mumkin boʻlgan vosita turini toping.

A) Muloqot texnikasi

B) Muloqot texnologiyasi

C) Yozma muloqot

D) Pedagogik muloqot

22. Bildirishnomalar, eslatmalar, hisobotlar, moliyaviy hisobotlar, biznes xatlari va shu kabilarning barcha turlarini nima qamrab oladi?

A) Rasmiy muloqot

B) Muloqot texnologiyasi

C) Yozma muloqot

D) Pedagogik muloqot

23. Soʻzlarni tanlashda nimalarga amal qilish zarur?

A) Terminologiyadan ehtiyotkorlik bilan foydalanish

B) Uzun soʻzdan koʻra qisqasini tanlash

C) Tanish soʻzlardan foydalanish

D) A,B va C

24. Ilmiy tadqiqotda kirish qismi vazifaning umumiy qismining necha foizini tashkil etadi?

A) 5%

B) 10%

C) 15%

D) 20%

25. Kirish qismining umumiy xususiyatlari nechta?

A) 7 ta

B) 8 ta

C) 9 ta

D) 10 ta

26. Agar siz kimningdir ishidan yordam olsangiz, buni koʻrsatishning qanday usullari bor?

A) Qoshtirnoq usuli va qavsga olish usuli
B) Havola berish usuli va qo‘shtirnoq usuli
C) Qisqacha mazmun usuli va qo‘shtirnoq usuli
D) Havola berish usuli va qisacha mazmun usuli

27. Ko‘chirmachilik (plagiat) darajalari nechta qismga bo‘linadi?
A) 7 ta
B) 8 ta
C 9 ta
D) 10 ta

28. Asosiy ma’noni saqlagan holda, fikrni boshqa so‘zlar yordamida ifodalash qanday nomlanadi?
A) Xulosalash
B) Perefrazalash
C) Izohlash
D) Tasvirlab ifodalash

29. Xulosalashning maqsadi nimadan iborat?
A) Ma’lumotlar hajmini yetarli darajagacha qisqartirish va uzundan uzoq ma’lumotlarni qisqa hajmga keltirishdan iborat
B) Umumiy ma’noni saqlagan holda ma’lumotni asl manbadagidan farqli qilib, o‘zgartirib yozishdan iborat
C) Keltirilgan ma’lumotning hajmini tasvirlab ifodalashdan iborat
D) barchasi to‘g‘ri

30. Perefrazalashning maqsadi nimadan iborat?
A) Ma’lumotlar hajmini yetarli darajagacha qisqartirish va uzundan uzoq ma’lumotlarni qisqa hajmga keltirishdan iborat
B) Umumiy ma’noni saqlagan holda ma’lumotni asl manbadagidan farqli qilib, o‘zgartirib yozishdan iborat
C) Keltirilgan ma’lumotning hajmini tasvirlab ifodalashdan iborat
D) barchasi to‘g‘ri

31. Qanday perefraza asl manbadan o‘z shakliga ko‘ra farqlanadi, asl manbadagi so‘zlarning sinonimlaridan iborat bo‘ladi, asosiy ma’noni saqlagan bo‘ladi, asl manbadagi ba’zi bir qismlarni o‘zida mujassamlashtiradi?
A) Ilmiy perefraza
B) Tasviriy perefraza
C) Ta’sirchan perefraza
D) Xulosali perefraza

32. Perefrazalashning necha xil usullari mavjud?
A) 2 xil
B) 4 xil

C) 5 xil
D) 3 xil

33. Ma’lumot olingan manbani keltirib o‘tish qanday nomlanadi?
A) havola
B) sitata
C) izoh
D) perefraza

34. Havola va sitatalar qo’llanilishining nechta asosiy sababi mavjud?
A) 2 ta
B) 4 ta
C) 5 ta
D) 3 ta

35. Sitatalardan qanday hollarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
A) Sitata muallifining aynan gapi o‘zgacha ma’noni anglatsa
B) Muallifning aynan gapi siznikiga qaraganda qisqa va lo‘nda bo‘lsa
C) Muallifning aynan gapi barchaga ma’lum va mashhur bo‘lsa
D) barchasi to‘g‘ri

36. Sitatada ba’zi bir so‘zlar izoh talab qilishi mumkin va bunday hollarda qanday tinish belgisidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
A) oddiy qavs
B) to‘rtburchak qavs
C) qo‘shtirnoq
D) uchburchak qavs

37. Sitatalar asl manbadagiday bo‘lishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Agar ma’lum bir qismlar keraksiz bo‘lsa, shu joyda qaysi belgidan foydalanish mumkin?
A) ko‘p nuqta
B) nuqtali vergul
C) undov belgisi
D) ikki nuqta

38. Qisqa sitatalar qanday tinish belgisi yordamida yoziladi?
A) oddiy qavs
B) bittalik qo‘shtirnoq
C) to‘rtburchak qavs
D) uchburchak qavs

39. Uzunroq sitatalar satr boshidan boshlanadi yoki kichikroq qilib yoziladi. Bu holatda qanday tinish belgisi qo’yiladi?
A) bittalik qo’shtirnoq
B) ikkitalik qo’shtirnoq

C) hech qanday qo‘shtirnoq qo‘yilmaydi

D) to‘g‘ri javob yo‘q

40. Qaysi so‘z lotinchadan olingan bo’lib, “bildirmoq” degan ma’noni anglatadi?

A) referat

B) annotatsiya

C) taqriz

D) sitata

41. Qaysi so‘z lotinchadan olingan bo‘lib, “qayd” , “qisqacha ta’rif” degan ma’noni anglatadi?

A) referat

B) annotatsiya

C) taqriz

D) sitata

42. “Taqriz” so‘zi qaysi tildan olingan bo‘lib, qanday ma’noni anglatadi?

A) lotinchadan olingan bo‘lib, “bildirmoq” degan ma’noni anglatadi

B) lotinchadan olingan bo’lib, “qayd” , “qisqacha ta’rif” degan ma’noni anglatadi

C) arabchadan olingan bo‘lib, “ijobiy baho” degan ma’noni anglatadi

D) arabchadan olingan bo‘lib, “ ta’kidlash” degan ma’noni anglatadi

43. Referat qanday qismlardan tuziladi?

A) Kirish; Asosiy qism; Xulosa

B) Reja; Kirish; Asosiy qism; Xulosa; Mundarija

C) Referat mavzusi; Kim tomonidan bajarilganligi; Asosiy matn

D) B va C

44. Referat qanday bo‘limlardan tashkil topadi?

A) Titul varag‘i; Reja; Kirish qismi

B) Asosiy qism; Xulosa; Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

C) Kirish; Asosiy qism; Xulosa

D) A va B

45. Asosiy manbalarni o‘rganib, referat mavzusini tanlagach, qanday ko‘rsatmalar inobatga olinadi?

A) Tanlangan mavzuga tegishli masalalar doirasi bilan tanishib chiqish va ma’ruza materiallarini ko‘zdan kechirish

B) Fan bo‘yicha o‘quv dasturiga ko‘ra tegishli mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlarni yana bir bor tahlil qilish hamda universitet axborot-kutubxona majmuida mavjud bo‘lgan kataloglardan foydalanib, referat mavzusi bo‘yicha adabiyotlar manbalari doirasini kengaytirish

C) A va B

D) Tanlangan mavzuga tegishli masalalar doirasi bilan tanishib chiqish hamda fan bo‘yicha o‘quv dasturiga ko‘ra tegishli mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlarni yana bir bor tahlil qilish

46. Konspekt qilishning qanday turlari mavjud?

A) rejali, matnli, tematik, xronologik, tahliliy yoki erkin

B) rejali, qolipli, matnli, jadvalli va erkin

C) xronologik, tahliliy, tematik, oddiy va munozarali

D) B va C

47. Agar referat monografik shaklda bo’lsa (bir manba yoki muallif tomonidan referat qilinayotgan bo‘lsa), unda kirish nechta qismdan iborat bo‘ladi?

A) 4 qism

B) 5 qism

C) 6 qism

D) 7 qism

48. Referatning rasmiylashtirilish to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.

A) referat kompyuterda 14-shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A 4 formatli qog‘ozda va matn uning ikki tomonini egallaydi, qog‘ozning chap tomonidan 2,5 sm, o‘ng tomonidan 1,5 sm, yuqorisi va pastidan kamida 3 smlik hoshiyalar bilan terilishi kerak. Matn sahifalari albatta raqamlanishi kerak. Referat hajmi 12-14 sahifadan oshmasligi kerak.

B) referat kompyuterda 12-shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A 4 formatli qog‘ozda va matn uning ikki tomonini egallaydi, qog‘ozning chap tomonidan 2,5 sm, o‘ng tomonidan 2,5 sm, yuqorisi va pastidan kamida 2 smlik hoshiyalar bilan terilishi kerak. Matn sahifalari albatta raqamlanishi kerak. Referat hajmi 10-12 sahifadan oshmasligi kerak.

C) referat kompyuterda 14-shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A 4 formatli qog‘ozda va matn uning faqat bir tomonini egallaydi, qog‘ozning chap tomonidan 1,5 sm, o‘ng tomonidan 1,5 sm, yuqorisi va pastidan kamida 2,5 smlik hoshiyalar bilan terilishi kerak. Matn sahifalari albatta raqamlanishi kerak. Referat hajmi 16-20 sahifadan oshmasligi kerak.

D) referat kompyuterda 12-shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A 4 formatli qog‘ozda va matn uning faqat bir tomonini egallaydi, qog‘ozning chap tomonidan 2,5 sm, o’ng tomonidan 1,5 sm, yuqorisi va pastidan kamida 2 smlik hoshiyalar bilan terilishi kerak. Matn sahifalari albatta raqamlanishi kerak. Referat hajmi 16-20 sahifadan oshmasligi kerak.

49. Annotatsiyaning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Talabalarga muayyan kitob, maqola yoki qo‘lyozma to‘g‘risida umumiy tasavvur tug‘dirish

B) Talabalarga mutaxassislikka oid adabiyot tanlashda yordam ko‘rsatish

C) Bibliografik ko‘rsatkichlarda hamda kutubxona kataloglarida qayd qilib borish

D) Ava B

50. Kitob, maqola, qo‘lyozma mundarijasini, mavzu yo‘nalishi va boshqa jihatlarini ochib berishga qaratilgan kichik hajmli matn qanday nomlanadi?

A) referat

B) annotatsiya

C) taqriz

D) konspekt

51. «Maqola» so‘zi qaysi tildan olingan bo‘lib, qanday ma’noni anglatadi?

A) arabchadan olingan bo‘lib, “bob, nutq” degan ma’noni anglatadi

B) arabchadan olingan bo’lib, “qayd” , “qisqacha ta’rif” degan ma’noni anglatadi

C) arabchadan olingan bo‘lib, “ijobiy baho” degan ma’noni anglatadi

D) arabchadan olingan bo‘lib, “ ta’kidlash” degan ma’noni anglatadi

52. Maqola qanday tarkibiy qismlardan tashkil topadi?

A) Sarlavha, kirish, reja, annotatsiya, asosiy qism

B) Xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

C) Kirish, asosiy qism, xulosa

D) A va B

53. Qanday maqolada ijtimoiy hayot hodisalari tahlil qilinib, nazariy va amaliy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar targ‘ib qilinadi, ilg’or ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xo‘jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi?

A) ilmiy maqolada

B) publitsistik maqolada

C) siyosiy maqolada

D) barcha maqola turlarida

54. ……. asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asarning g‘oyaviy badiiy xususiyatlari aks etadi.

A) Maqolada

B) Taqrizda

C) Annotatsiyada

D) Referatda

55. O‘zbek adabiyotida taqriz qachondan boshlab vaqtli matbuot bilan teng rivojlana boshlagan?

A) XIX asr oxirlarida
B) XX asr o‘rtalarida
C) XX asr boshlarida
D) XX asrning 80 yillarida

56. Qaysi yozuvchilar o‘zbek adabiy hayotida chuqur iz qoldirgan taqrizlar yaratganlar?

A) Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Cho‘lpon, Shukrullo
B) Oybek, Abdulla Qodiriy, Said Ahmad, Hamza
C) Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Ham
D) Oybek, Abdulla Qahhor, Shayxzoda,O‘tkir Hoshimov

57. Qaysi taniqli olimlar o‘zbek adabiy hayotida chuqur iz qoldirgan taqrizlar yaratganlar?

A) Olim Sharafiddinov, V.Zohidov, I.Sultonov, H.Yoqubov, M.Qo‘shjonov, I.Haqqulov
B) Ozod Sharafiddinov, U.Normatov, H. Boltaboyev, N. Mahmudov, I.Haqqulov
C) B. Nazarov, E. Karimov, H.Yoqubov, H. Boltaboyev, I.Haqqulov
D) V.Zohidov, U.Normatov, Ozod Sharafiddinov, M.Qo‘shjonov, E. Karimov

58. Kim taqrizni haqiqiy san’at darajasiga ko‘tardi?

A) Izzat Sulton
B) Olim Sharafiddinov
C) V.G.Belinskiy
D) Ch. Dikkens

59. So‘z va uning ma’nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi qanday nomlanadi?

A) morfologiya
B) leksikologiya
C) etimologiya
D) frazeologiya

60. So‘zning grammatik ma’no bildiruvchi qo‘shimchalarsiz qismi qanday nomlanadi?

A) leksema
B) frazema
C) nomema
D) to‘g‘ri javob yo‘q

61. Lug‘aviy birliklarga quyidagilardan qaysilari kiradi?

1) so‘z; 2) ibora; 3) termin (atama); 4) qo‘shma so‘z; 5) tasviriy ifoda.

A) faqat 1,2,3

B) faqat 1,4,5
C) faqat 1,3,4
D) 1,2,3,4,5

62. Bir ma’noli so‘zlar qaysi qatorda berilgan?
A) ko‘z, qosh
B) og‘iz, bosh
C) etak, oyoq
D) chumchuq, ravish

63. Qanday so‘zlarga nisbatan "ko‘chma ma’no" atamasi qo‘llanadi?
A) bir ma’noli so’zlarga nisbatan
B) ko‘p ma‘noli so‘zlarga nisbatan
C) omonim so‘zlarga nisbatan
D) sinonim so‘zlarga nisbatan

64. Ko‘p ma’noli so‘zlarni toping?
A) men, sen
B) besh, o‘n
C) ota, ona
D) tomir, yoqa

65. “Polisemiya” va “polisemantik so‘z” deganda nima tushuniladi?
A) shakldoshlik va shakldosh so‘zlar
B) zid ma’nolilik va zid ma’noli so‘zlar
C) ko‘p ma‘nolilik va ko‘p ma‘noli so‘zlar
D) ma‘nodoshlik va ma‘nodosh so‘zlar

66. “Denotativ ma’no” deganda nima nazarda tutiladi?
A) so‘zning asl, tub ma‘nosi
B) so‘zning ko’chma, yasama ma’nosi
C) so‘zning grammatik ma’nosi
D) barchasi to‘g‘ri

67. “Konotativ ma’no” deganda nima nazarda tutiladi?
A) so‘zning asl, tub ma‘nosi
B) so‘zning ko‘chma, yasama ma’nosi
C) so‘zning grammatik ma‘nosi
D) barchasi to‘g‘ri

68. Qaysi juftliklarda h va x harflarining farqi seziladi?
A) bahuzur – baxuzur, xaroba – haroba
B) har – xar, sahar – saxar
C) oxur – ohur, tahir – taxir
D) shoh – shox, uhlamoq – uxlamoq

69. Qaysi qatorda til so‘zi ko‘chma ma’noda kelgan?

A) Til – millat boyligi.
B) Ona tilim – faxrim.
C) Agronom Salimov dehqonchilikning tilini yaxshi biladi.
D) Til tovushlari to‘rt guruhga bo‘linadi.

70. Kasbiy atamalar berilgan qatorni toping.
A) andava, sog‘moq, yigirmoq
B) hikoya, qissa, roman
C) milod, kalendar, kurtak
D) qo‘shish, kvadrat, ot, fe’l

71. Internet so‘zining ma’nosini qaysi lug‘at orqali bilib olish mumkin?
A) tarjima lug‘ati
B) imlo lug‘ati
C) izohli lug'at
D) sinonim (ma’nodosh) so‘zlar lug‘ati

72. Tildagi so‘zlarning qanday paydo bo‘lishini o‘rgatuvchi lug‘at...?
A) imlo lug‘at
B) etimologik lug‘at
C) izohli lug‘at
D) morfemik lug‘at

73. Tilshunoslikka oid atamalar berilgan qatorni aniqlang.
A) inqilob, podshoh, feodal, dehqon
B) yuklama, paronimlar, son, hol
C) aniqlovchi, to‘ldiruvchi, xol
D) fonendoskop, terapevt, oddiy tasvir

74. Shevaga xos so‘zlar qaysi qatorda berilgan?
A) maktab, suv, tosh
B) yaxshi, yomon, sariq
C) men, sen, biz
D) moma, mayak, o‘jak

75. Ma’lum hududdagina ishlatilib, faqat shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlar qanday ataladi?
A) atamalar
B) paronimlar
C) sheva so‘zlar
D) terminlar

76. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil bo‘lgan so‘zlarni toping.
A) osmon, oftob, bahor, barg, daraxt, shamol
B) kitob, maktab, xalq, shoir, ma’no, oila
C) stol, stul, ruchka, pero, pechka, parta

D) limonzor, sportchi, tilshunos, ilmli, maktabdosh, shoirona

77. Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limiga oid atamalar qaysi qatorda berilgan?

A) umumxalq so‘zlari, ko‘p ma’noli so‘z, atama

B) yordamchi so‘zlar, bog‘lama, hol

C) grammatik ma’no, undovlar, bog‘lovchi

D) ajratilgan bo‘lak, undalma, kirish so‘zi

78. O‘zbek tili lug‘atida o‘z ichki imkoniyatlari asosida hosil bo‘lgan so‘zlar qatorini toping.

A) kitob, ma’no, ruchka, parta

B) ijarachi, vazirlik, guldasta, raqobatbardosh

C) kiyim, buyum, ketmon, o‘rik

D) oftob, sahro, saraton, mavj

79. Umumxalq ishlatadigan so‘zlar qatorini toping.

A) egat, kultivatsiya, chekanka, ko‘rak

B) iskana, randa, poytesha, pona, parma, payraxa

C) ko‘z, qo‘l, radio, gazeta, yaxshi, yomon, kel, tur

D) yostiq, bolish, taka, ko‘chik, jastiq

80. O‘zbek adabiy tilining boyishida shevalar qanday manba hisoblanadi?

A) ichki manba

B) tashqi manba

C) shevalar adabiy tilning emas, balki o‘zbek milliy tilining ichki manbasi hisoblanadi

D) shevalar adabiy til uchun manba bo‘la olmaydi

81. Qaysi qatorda atash ma’nosiga ega so‘z berilgan?

A) haqiqatan

B) faqat

C) filhaqiqat

D) faraz

82. Dono, kamtar so‘zlari qaysi tilga mansub?

A) arab

B) fors-tojik

C) o‘zbek

D) turkiy

83. Qaysi qatordagi so‘zning tasviriy ifodasi noto‘g‘ri berilgan?

A) archa – o‘rmon malikasi

B) fazogirlar – samo lochinlari

C) shoirlar – mo‘yqalam sohiblari

D) makkajo‘xori – dala malikasi

84. Nutqning ta’sirchanligini oshiruvchi tasviriy ifodalar asosan qaysi so‘z turkumlari doirasida keng qo‘llanadi?

A) ot
B) sifat
C) fe’l
D) olmosh

85. O‘zbek (turkiy) tili o‘z ichki imkoniyatlari bilan qay yo‘sinda boyib boradi?

A) boshqa tillardan so‘z olish
B) so‘z yasash va shevadan so‘z olish
C) so'z o‘zlashtirish
D) kalkalash

86. Predmet, voqea va hodisani o‘z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi birikma qanday nomlanadi?

A) Ibora
B) Ko‘chma ma’noli so‘zlar
C) Tasviriy ifoda
D) Termin

87. Fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san’at va madaniyat sohasiga xos so‘zlar qanday nomlanadi?

A) termin
B) tasviriy ifoda
C) ibora
D) so‘z birikmasi

88. Lug‘atlar maqsad va mo‘ljaliga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

A) Umumiy va filologik lug‘atlar
B) Ensiklopedik va filologik lug‘atlar
C) Maxsus va ensiklopedik lug‘atlar
D) Umumiy va maxsus lug‘atlar

89. Tilshunoslikning qaysi bo‘limida uslub va uning turlari, til vositasining qo‘llanish xususiyatlari, fonetik, lug‘aviy, frazeologik va grammatik birliklarning uslubiy imkoniyati o‘rganiladi?

A) Grammatika
B) Uslubiyat
C)Terminologiya
D) Leksikologiya

90. Adabiy til me’yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli qanday ataladi?

A) Oddiy so‘zlashuv uslubi
B) Adabiy so‘zlashuv uslubi

C) Badiiy uslub
D) Publitsistik uslub

91. Qaysi uslubda so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi, qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo‘laklar, kirish so‘zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo‘shma gaplardan keng foydalaniladi?
A) Badiiy uslub
B) Rasmiy-idoraviy uslub
C) Ilmiy uslub
D) Publitsistik uslub

92. Davlat idorasi tomonidan chiqariladigan qaror, qonun, nizom, xalqaro hujjatlar qaysi uslubda yoziladi?
A) Badiiy uslub
B) Rasmiy-idoraviy uslub
C) Ilmiy uslub
D) Publitsistik uslub

93. Idoraviy-devonxona uslubiga kiruvchi hujjatlarni belgilang.
A) buyruq, ariza bildirgi, tavsifnoma
B) tarjimayi hol, dalolatnoma
C) qonun, farmon, jinoiy aktlar
D) A va B

94. Kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o‘ziga xos tarzda amal qilishi qaysi uslub sanaladi?
A) Badiiy uslub
B) So‘zlashuv uslub
C) Ilmiy uslub
D) Publitsistik uslub

95. Qaysi uslub ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniyeda, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, e’lon, reklama singari qator janrlarni o‘z ichiga qamrab oladi?
A) Badiiy uslub
B) So‘zlashuv uslub
C) Ilmiy uslub
D) Publitsistik uslub

96. Bu uslub o‘zbek tili vazifaviy uslublari orasida o‘ziga xos mavqyega ega bo‘lib, ayni paytda o‘zining alohida ma’yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo‘lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-

estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi qaysi uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi?

A) Badiiy uslub
B) So‘zlashuv uslub
C) Ilmiy uslub
D) Publitsistik uslub

97. Publitsistik uslub qanday shaklda namoyon bo‘ladi?

A) ommaviy-axborot shaklida
B) yozma va og‘zaki shaklda
C) ommabop-publitsistik shaklda
D) Nutqiy munosabat shaklda

98. Sof qonunchilik uslubida yozilgan hujjatlar qatorini toping?

A) buyruq, ariza bildirgi, tavsifnoma
B) tarjimayi hol, dalolatnoma
C) qonun, farmon, jinoiy aktlar
D) A va B

99. Diplomatik uslubda yozilgan hujjatlar qatorini toping?

A) buyruq, ariza bildirgi, tavsifnoma
B) tarjimayi hol, dalolatnoma
C) qonun, farmon, jinoiy aktlar
D) nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya

100. Qaysi nutq uslublari ham og‘zaki, ham yozma shakllarga ega?

A)Publitsistik, badiiy, rasmiy, ilmiy
B) Publitsistik, so‘zlashuv, rasmiy
C) faqat ilmiy va badiiy
D) faqat so‘zlashuv va badiiy

Qog‘oz bichimi A5, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi
Nashr bosma tabog‘i 4.37
Buyurtma № 091A. Adadi 10 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
11.04.2022 y. LICENSE № 025316
REESTR № X-119112
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy,
A. Temur ko’chasi 9-uy.